

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI**

**Qo'lyozma huquqida
UDK № 78.071.4**

Abilov M.

**Musiqa madaniyati darslari samaradorligini oshirishda
interfaol usullardan foydalanish.**

5A111101– musiqa mutaxassisligi

**Pedagogika bo'yicha magistr darajasini
olish uchun yozilgan**

MAGISTRLIK DISSERTASIYASI

Ish ko'rib chiqildi va himoyaga
ruxsat berildi.

Ilmiy rahbar

«Musiqa o'qitish metodikasi va
xalq cholg'u asboblari» mudiri
E.K.Djalilov _____

M.O'

Samarqand – 2012

Reja:

Kirish.

I BOB. Ta'lim samaradorligini oshirishda ilg'or pedagogik texnologiyalarning o'рни va ahamiyati.

1.1. Ta'lim jarayonida pedagogik texnologiyalarni joriy etishning ilmiy – nazariy asoslari.

1.2. Musiqa ta'limida pedagogik texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlari.

II BOB. Musiqa madaniyati darslarida ilg'or pedagogik texnologiyalarni qo'llash mazmuni.

2.1. Musiqa o'qituvchilarini innovatsion ta'lim faoliyatiga tayyorlash.

2.2. Musiqa darslarida ilg'or pedagogik texnologiyalarni tadbiq etish texnologiyasi.

III BOB. Ilg'or pedagogik texnologiyalar vositasida ta'lim samaradorligini ta'minlash yuzasidan amaliy tajribalar mohiyati.

3.1. Musiqiy ta'limda ilg'or pedagogik texnologiyalarni qo'llash tizimi va uning samaradorligi.

3.2. Tajriba – sinov ishlari natijalari tahlili.

Umumiy xulosalar.

Foydalanilgan adabiyotlar.

Ilovalar.

Kirish

Mavzuning dolzarbligi:

Mamlakatimizda barcha sohalar qatori ta`lim tizimida ham keng qamrovli yangilanishlar va ijobiy o`zgarishlar amalga oshirilmoqda. Bunga “Ta`lim to`g`risida” gi qonun “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” ham huquqiy, ham tashkiliy pedagogik asos bo`lib xizmat qilmoqda.

Ta`lim mazmunini yangilash, takomillashtirish va sifat ko`rsatkichlarini oshirish barobarida o`qituvchi – murabbiylarning malakasini oshirish, ularning ilm – fan taraqqiyoti bilan hamqadam borishini, ayniqsa barcha sohalarga keng kirib kelgan va qo`llanilayotgan axborot texnologiyalari, interfaol usullardan unumli foydalana oladigan, kompyuter bilan erkin muloqot qila oladigan va o`z faoliyatida, dars samaradorligini ta`minlashga tadbiiq eta oladigan darajada tayyorlash (qayta tayyorlash) bugungi kunning muhim vazifalaridandir.

O`qitish jarayonining samaradorligini oshirishda ta`limga interfaol usullarni, innovatsion pedagogik texnologiyalarni kiritish va ulardan mohirona foydalanish muhim o`rin tutadi. Zero, an`anaviy ta`limda o`quvchilar faqat tayyor bilimlarni egallashga o`rgatilgan bo`lsalar, rivojlantiruvchi ta`lim mezonlariga muvofiq bilimlarni o`quvchilarning o`zlari o`rganishi, tahlil qila olishi, xulosalarni ham o`zlari keltirib chiqarishiga yo`naltirilishi bilan muhim ahamiyat kasb etadi. Shunday ekan pedagogika oliy o`quv yurtlarida tashkil etilayotgan ta`lim tizimi bo`lajak o`qituvchilarni o`z faoliyatlarida interfaol uslublardan, ilg`or pedagogik texnologiyalardan foydalana oladigan, ularni amaliyotga ijodiy va erkin qo`llay olish malakalarini shakllantirishga ham e`tibor qaratish lozim.

Hozirgi kunda ta`limning barcha bo`g`inlarida fanlarning o`qitilishi, mashg`ulotlarni ilg`or pedagogik texnologiyalardan foydalanib tashkil etish bo`yicha ko`plab o`quv – uslubiy qo`llanmalar, tavsiyanomalar, ko`rsatmalar va pedagogik texnologiyalarni qo`llashning mazmun va mohiyati yoritilgan

adabiyotlar ko'plab yaratilmoqda. Bu borada ayniqsa fanlar bo'yicha "Uzviylashtirilgan Davlat Ta'lim Standarti va o'quv dasturlari" ning yaratilishi e'tiborga molik ish bo'ldi. Ta'limga pedagogik texnologiyalarni joriy etish yuzasidan nashr qilingan muhim adabiyotlar va ilmiy – uslubiy ishlar jumlasiga Yo'ldoshev Sh, Usmonov S, R. Ishmuhammedov, A. Abduqodirov, A. Pardayev, O'. Tolipov, Tojiyevlarning ishlarini ko'rsatib o'tish mumkin. Ta'lim jarayoniga pedagogik texnologiyalarni joriy etish bilan ta'lim samaradorligini oshirish bo'yicha bajarilgan ilmiy – tadqiqot ishlariga M. Yunusova, O. Do'stmuhammedova, G. Iskandarovalarning ilmiy izlanishlarini misol keltirish mumkin. Ushbu ishlar mazmunida ta'lim jarayoniga pedagogik texnologiyalarni joriy etish, shuningdek ona tili va adabiyoti, botanika, matematika, fizika, geografiya, rus tili va adabiyoti fanlarini pedagogik texnologiyalar yordamida tashkil etish masalalari, uning pedagogik, metodik, tashkiliy jihatlari ilmiy tadqiq qilingan.

Musaiqa ta'limi sohasida esa M. Abramova, D. Soliyevalar tomonidan nashr qilingan umumta'lim maktablari 2 – sinfi uchun darslarni pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish bo'yicha chiqarilgan o'quv – metodik qo'llanmadan bo'lak alohida ilmiy – uslubiy, va tadqiqot ishlari qilinmagan. Bu qo'llanma ham tavsiyanoma xarakterida bo'lib, dars jarayonida qo'llash mumkin bo'lgan ayrim texnologiyalarga tavsif berish bilan cheklangan.

Musiqqa pedagogikasi va metodikasiga oid keyingi yillarda qilingan ilmiy – tadqiqot ishlarini ko'zdan kechirish va tahlil qilish shuni ko'rsatdiki, musiqqa darslarini ilg'or pedagogik texnologiyalar asosida tashkil qilish muammosi maxsus ilmiy tadqiqot mavzusi sifatida o'rganilmagan. Bu esa bizning magistrlik dissertatsiyamiz mavzusini "Musiqqa madaniyati darslari samaradorligini oshirishda interfaol uslublardan foydalanish" nomlanishida tanlashimizga sabab bo'ldi. Tanlangan mavzu muammosini aynan musiqqa ta'limi bo'yicha maxsus tadqiq qilinmaganligi uning dolzarblik kasb etishini belgilaydi.

Tadqiqotning maqsadi: Umumta`lim maktablarida “Musika madaniyati” darslarini interfaol uslublardan foydalangan holda tashkil etishning pedagogik shart – sharoitlarini o`rganish va ilmiy – metodik tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqot vazifalari:

- Umumta`lim maktablarida musika madaniyati darslarini ilg`or pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etishning ahvoli va pedagogik shart – sharoitlarini o`rganish;
- Umumta`lim maktablari musika o`qituvchilari, musika pedagogikasi bo`yicha pedagog - olimlar bilan suhbatlar o`tkazish;
- Musika darslarini ilg`or pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish bo`yicha to`plangan tajribalarni o`rganish;
- Musika darslarida ilg`or pedagogik texnologiyalarni qo`llash shkl va usullarini aniqlash;
- Ilg`or pedagogik texnologiyalarning ta`limsamaradorligini oshirish ko`rsatkichlarini baholash mezonlarini ishlab chiqish;
- Musika darslarini ilg`or pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish orqali dars samaradorligiga erishishga oid ilmiy – metodik tavsiyalarni ishlab chiqish.

Tadqiqot ob`ekti: Umumta`lim maktablari “Musika madaniyati” darslarini ilg`or pedagogik texnologiyalar orqali tashkil etish jarayoni.

Tadqiqot predmeti: Umumta`lim maktablarida “Musika madaniyati” darslarini interfaol metodlar orqali tashkil etish mazmuni, tamoillari, bosqichlari.

Tadqiqot metodlari: Mavzuga doir ilmiy, uslubiy, musiqashunoslik, pedagogik va psixologik adabiyotlarni o`rganish, tahlil qilish, pedagogik kuzatish, ilg`or ish tajribalarni o`rganish, qiyoslash, umumlashtirish, savol – javob, anketa – so`rov, tajriba – sinov ishlari va matematik statistika.

Tadqiqot farazi: Musiqa darslarini interfaol metodlardan foydalangan holda o`tish samarali kechadi. Agarda: Umumta`lim maktablarida musiqa darslarini ilg`or pedagogik texnologiyalar asosida o`tish bilan dars samaradorligiga erishishni kafolatlovchi zarur pedagogik shart – sharoitlar aniqlansa; ta`limga texnologik yondashishning ilmiy – nazariy va amaliy jihatlari asoslansa; musiqa darslarini ilg`or pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish mazmuni, shakl, usullari aniqlansa; musiqa darslariga ilg`or pedagogik texnologiyalarni tadbiq etish bo`yicha ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqilsa.

Himoyaga olib chiqiladigan holatlar:

1.Musiqa darslarini interfaol metodlardan foydalangan holda tashkil qilishning dolzarb pedagogik muammo ekanligi;

2.Musiqa darslarini interfaol metodlar orqali tashkil etishning nazariy asoslari;

3.Musiqa darslarini interfaol metodlardan foydalangan holda tashkil etishga yo`naltirilgan pedagogik faoliyat mazmuni;

4.Musiqa darslarida interfaol metodlarni tadbiq etish texnologiyasi;

5.Musiqa darslarida interfaol metodlardan foydalanish bo`yicha tavsiya va xulosalar;

Tadqiqotning metodologik asosi:

O`zbekiston Respublikasining “Ta`lim to`g`risida” gi qonuni va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”, O`zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, Umumiy o`rta ta`limning musiqa fani bo`yicha Davlat Ta`lim Standarti va o`quv dasturi, O`zbekiston Respublikasining O`zbekistonda ta`limni yangicha asoslarda qayta qurish, takomillashtirishga oid farmonlari, qarorlar, Prezidentimiz asarlari, nutqlari, Umumiy o`rta ta`limning musiqa faniga oid darsliklari, shuningdek, pedagogika, psixologiya, estetikaga oid ilmiy – uslubiy manbaalar.

Ishning ilmiy – amaliy ahamiyati:

1. Musiqa darslari samaradorligini oshirishda interfaol usullardan foydalanish muammosi musiqa pedagogikasida birinchi bor tadqiq etildi.

2. Umumta`lim maktablarida faoliyat yuritayotgan musiqa o`qituvchilarini darslarni interfaol metodlardan foydalangan holda tashkil etish bo`yicha ilmiy – uslubiy manbaadan foydalanish imkoniyatlari yaratildi.

3. Musiqa darslarini interfaol usullar yordamida tashkil etish bo`yicha ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqildi.

Dissertatsiyaning tarkibiy tuzilishi:

Dissertatsiya Kirish, 3 bob, 6 paragraf, Umumiy xulosalar va foydalanilgan adabiyotlar ro`yxatidan iborat bo`lib, umumiy hajmi sahifani tashkil etdi.

I BOB: Ta`lim samaradorligini oshirishda ilg`or pedagogik texnologiyalarning o`rni va ahamiyati.

1.1. Ta`lim jarayoniga pedagogik texnologiyalarni joriy etishning ilmiy nazariy asoslari.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturini ro`yobga chiqarishning hozirgi kunda hal qiluvchi bosqichida ko`zda tutilgan sifat va samaradorlik ko`rsatkichlariga erishish uchun ta`lim – tarbiya jarayonini tashkil etishni modernizatsiya qilish va uning innovatsion shakl va usullarini amaliyotga joriy qilish shu kunning kechiktirib bo`lmas dolzarb masalasi bo`lib turibdi. Shuning uchun ilg`or pedagogik texnologiyalarning obyekti, predmeti, maqsad va vazifalari nimalardan iborat va ularni ta`lim jarayoniga tadbiq etish qanday natija beradi va ta`lim mazmunini takomillashishiga qanday ta`sir ko`rsatadi degan savol har bir fanni o`qitilishida ko`ndalang qo`yilayotganligi bejiz emas. Fan, texnika va axborot uzatish, almashish texnologiyalarini aql bovar qilmaydigan darajada tez va shiddatli rivojlanish jarayoni o`z navbatida ta`lim sohasida ham an`anaviy metodlarni yangicha zamonaviy va interfaol metodlar bilan boyitib borishni taqozo etmoqda. Xo`sh, interfaol, modellashtirilgan metodlar qaysi jihatlari bilan ustunlik kasb etmoqda? Uning qanday turlari, tarkibiy tuzilishi, o`quv jarayonlarini tashkil etish shakl va vositalari, ilgari mavjud bo`lgan o`qitish (Ta`lim) metodlaridan nimasi bilan farqlanadi, uning samarasi nimalarda o`z isbotini topadi va uning **monitoringi**, baholash tizimi qanday olib boriladi degan savollarga har bir o`quvchi-murabbiy va pedagoglar tayyor bo`lishlari ular oldiga qo`yilayotgan eng muhim **ijtimoiy** buyurtma ekanligini anglash va bu savollarga javob berishga to`g`ri keladi.

“Ta`lim to`g`risida”gi qonun va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”da ta`limni modernizatsiya qilish bo`yicha belgilangan vazifalarni amalgam oshirishning asosiy me`yoriy, dasturiy xujjatlari bo`lmish o`quv rejalari namunaviy fan dasturlari, yangi avlod darsliklari, o`quv uslubiy qo`llanmalar ta`lim mazmuni

va darajasiga qo`yiladigan talablarni aks ettiruvchi Davlat ta`lim standartlari fan va ta`limning eng so`nggi yutuqlari asosida qanchalik takomillashtirilmasin o`quv jarayoni va uni tashkil etishning moddiy texnik ta`minoti qanchalik mustahkamlanmasin, modernizatsiya qilinmasin, olinadigan pirovard natija oxir oqibat ta`lim jarayonini tashkil etuvchi, dars mazmuni va sifat samaradorligini ta`minlovchi o`qituvchi – murabbiylarning kasbiy bilimi, ko`nikma malakasiga, ijodkorligiga, tashabbuskorligi, pedagogik mahorati va intellektual salohiyatiga, o`quvchilarni fan bo`yicha bilimlarni egallashiga qiziqтира olishi va eng zarur intilish qobiliyatlarini ro`yobga chiqara olish salohiyatlariga bog`liq bo`lib qolaveradi.

Shu narsani ta`kidlash joizki ta`lim – tarbiyaning sifati va samaradorligini ta`minlash o`quvchi yoki talabaning o`quv mazmunini o`zlashtirishiga yo`naltirilgan o`quv jarayonining to`g`ri, mazmunli, qiziqarli tashkil etilishi, bu jarayonda o`quvchi – talabalarni darsda oddiy tinglovchi emas, mashg`ulotni faol ishtirok etuvchisi, mustaqil top[shiriqlarni bajaruvchi, mustaqil va ijodiy fikrlovchi, o`z fikr mulohazalarini erkin ifoda eta oluvchi, o`z fikrlarini himoya qila oladigan faol shaxsga aylanishi muhim rol o`ynaydi.

Ko`rinib turibdiki ta`lim jarayonini bunday tashkil etish eng avvalo, bo`lg`usi o`qituvchilarni oily dargohlarda kasbga tayyorlash jarayonida inobatga olishni taqozo etadi. Shuning uchun oily ta`limda faoliyat olib boruvchi professor – o`qituvchilar o`zi dars berayotgan fan bo`yicha mashg`ulotlarni texnologiyalashtirilgan shaklda olib borishi, shogirdlarini mazkur faoliyatga tayyorlab borishilozim bo`ladi.

Ta`limga pedagogik texnologiyalarni tadbiiq etish bo`yicha amaliy tajribalarni o`rganish, kuzatish va tahlil qilish shuni ko`rsatmoqdaki, ta`limning deyarli barcha bo`g`inlarida mashg`ulotlarni interfaol metodlar asosida tashkil etish keng tus olmoqda. Bizningcha bu har bir darsda pedagogik texnologiyaning u yoki bu turini qo`llash kerak degan xulosani bermasligi kerak. Ilg`or pedagogik texnologiya qachon samarali bo`ladi, u o`quvchilar uchun qiziqarli, ularni faollashtiruvchi, mustaqil va ijodiy fikrlashga, mushohada qilishga yo`naltira olsa.

Buning uchun o`qituvchi pedagogik texnologiyani tanlashda dars mavzusi, tuzilishi, o`quvchilarni qiziqishi, agar musiqa darslari bo`lsa ularni nazariy, amliy, ijrochilik imkoniyatlarini hisobga olgan holda qo`llashiga to`g`ri keladi.

Pedagogik texnologiyalarni qo`llashdan ko`zlangan asosiy maqsad va vazifalar quyidagilarni ko`zda tutadi: Tashkil etish, hamkorlikda (O`qituvchi va o`quvchi o`zaro munosabatlari) ishlash, guruh bo`lib, yakka holda ishlash, har bir o`quvchining faolligini ta`minlash, takomillashtirish, tahlil qilish, qiyoslash, umumlashtirish, xulosa chiqarish, nazorat qilish, baholash va hokazo.

Fanlarni o`qitish jarayonida har bir o`qituvchi pedagogik texnologiyalarni qo`llash uchun quyidagi tayyorgarlik tizimi bo`yicha ish tutishi maqsadga muvofiq bo`ladi:

- ◆ Mavzuni aniqlash;
- ◆ Maqsadni to`g`ri qo`yish, belgilash;
- ◆ Mavzu yuzasidan o`zlashtirish lozim bo`lgan kalit so`zlarni belgilash;
- ◆ Vazifalarni 1,2,3,4.... belgilab olish;
- ◆ Texnologik jarayon senariysini tuzib olish;
 1. Individual ishlash;
 2. Guruh (kichik guruh) va jamoa bo`lib ishlash;
 3. Butun jamoa bilan savol – javob, munozara, klaster, aqliy hujum va boshqalar.
- ◆ Reglament;
- ◆ Baholash;
- ◆ Xulosalash;

Tayyor holdagi texnologiyalar avval tajriba – sinovdan o`tgan va ijobiy (yuqori) samara berganlari o`quv jarayoniga tadbiq etiladi.

Hozirgi vaqtda o`quv mashg`ulotlarini loyihalashtirish va ayrim fanlargagina xos texnologiyalarni qo`llashga ham e`tibor kuchaymoqda. Xuddi shunday holatni musiqa mashg`ulotlarini texnologiyalashtirish tajribasida ko`rish mumkin. Bunga misol qilib ilg`or pedagoglar tomonidan qo`llanilayotgan “Konsert darslari”,

“Viktorina darslari”, “Quvnoqlar va zukkolar darsi”, “Musiqiy sayohat”, “Men dirijyor” kabi texnologiyalarni ko`rsatish mumkin.

Mashg`ulotlarni loyihalashtirish deganda nimalar ko`zda tutiladi va bunda nimalarga asoslaniladi? Quyida mashg`ulot jarayonini loyihalashtirish asosida tashkil etish bosqichlarini keltiramiz:

- Dars mavzusiga oid materiallarni to`plash (O`qituvchining mavzu bo`yicha tayyorgarligi);
- Mavzuni o`rganish maqsadi va vazifalarni aniqlab olish;
- Dars turi, shakli, metod va vositalarini tanlash;
- Loyihada ko`zda tutilgan tushuncha, bilim, ko`nikma, malakalarni o`zlashtirish jarayonida sarflanadigan vaqt hajmini (Masalan, musiqa darslarida har bir faoliyatga ajratiladigan vaqt me`yorini rejalashtirish) hisobga olish;
- Har bir bosqichda erishiladigan natijalarni asosini tashkil etuvchi (topshiriq, amaliy ko`rsatib berish) mashq, misollar;
- Mashg`ulotni tashkiliy tuzilmasi va yakuni, xulosalar;

Darsning qaysi qismi, uning turi (ma`ruza, amaliy, seminar, musiqa darslarida esa qo`shiq kuylash, musiqa tinglash, musiqa savodxonligi) da qo`llanishidan qat`iy nazar o`quvchilarni psixologik, fiziologik xususiyatlari, tayyorgarlik darajalari (ovoz diapozoni, kuylash imkoniyatlari, yosh xususiyatlari) hisobga olinishi lozim. Bu jarayonda asosiy e`tabor o`quvchilar faolligini oshirish, mustaqil fikrlashga o`rgatish, ijodiy fikrlay olish, ijrochilik malakalarini o`stirish, ehtiyoj va qiziqishlariga ko`ra ish yuritish, ularni ichki imkoniyat va iqtidorlarini ishga solish, o`z – o`zini nazorat qilish, mustaqil bilim olish ko`nikmalarini o`stirishga qaratilishi lozim.

Shu o`rinda ilg`or pedagogik texnologiyalarni o`quv sharoitiga tadbiiq etishning e`tiborga molik xususiyatlariga alohida to`xtalib o`tamiz:

- ◆ Har qanday fanni o`rganishda o`quvchi – talabalar nafaqat o`qitiladi, mustaqil o`qish, o`rganishga o`rgatilib boriladi;

- ◆ O`quvchilarga beriladigan bilim, tushunchalar tayyor holda berilmaydi, balki o`uvchilar mustaqil ravishda manbalardan foydalangan holda mavzuga oid ma`lumot, axborotlarni yig`ish va o`rganishga o`rgatib boriladi;
- ◆ O`quv dasturi, darslik, qo`llanmalar, ma`ruza matnlari bilan ishlash ko`nikmalari hosil qilinadi;
- ◆ O`quvchi o`z fikrini bildira olish, himoya qila olish, isbotlashga odatlantirib boriladi;

Hozirgi kunda respublikamizning barcha ta`lim tizimida, ayniqsa oliy pedagogik ta`lim tizimida pedagog – kadrlar tayyorlashning sifat va samaradorligini yuqori ko`tarishga katta ahamiyat berilmoqda va bu borada turli pedagogik izlanishlar olib borilmoqda. Bu izlanishlarning aksariyati o`qitish maqsadi va uning yuqori natijalariga erishishida ta`limga ilg`or pedagogik texnologiyalarni kiritish orqali ta`lim samaradorligini oshirishga yo`naltirilgan bo`lib, ta`limni texnologiyalashtirish eng muhim vazifalardan bo`lib turibdi.

O`qituvchining yuksak pedagogik mahorati, bilim darajasi shubhasiz ta`lim–tarbiyaning muhim omillaridan biridir. Pedagogik mahorati yuqori, tajribali o`qituvchi darsni shunchaki bayon qilib bermaydi. Buni musiqa darslari misolida izohlaydigan bo`lsak, o`qituvchi avvalo o`zining so`z mahorati, cholg`u asbobida chalish, qo`shiq kuylash, turli ko`rgazmali, texnik vositalardan foydalanishi darsni qiziqarli va mazmunli kechishida katta rol o`ynaydi.

Musiqa darslarida aksariyat o`quvchilar o`qituvchiga taqlid qilib kuylashadi, unga ergashadi, andoza oladi, o`qituvchining shaxsiy “namunasi” muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki darsda amaliy ijrochilik yetakchi o`rin tutadi, quruq bayonchilik uslubi bilan hech qanday maqsadga erishib bo`lmaydi.

Puxta tashkillashtirilgan ilmiy - pedagogik tayyorgarlik ta`lim samaradorligini ta`minlaydigan asosiy omillardan biri sanaladi. Ushbu jarayonda faol ishtirok etuvchi o`qituvchilar muntazam ravishda o`zlarining pedagogik mahoratlarini orttirib boradilar hamda ta`lim – tarbiya samaradorligini ta`minlashda, kelajak uchun mas`ul barkamol avlodni kamolga yetkazishda

boshqalarga o`rnak bo`lib xizmat qiladilar. Demak har bir ta`lim bo`g`inida shu jumladan umumta`lim maktablarida “Musika madaniyati” darslarini olib boruvchi ilg`or pedagoglarning innovatsion faoliyatlari va tajribalarini doimiy takomillashtirib, rag`batlantirib borish orqali yaxshi natijalarga erishish mumkin.

Innovatsion faoliyatni ilmiy asosda tashkil etish munosabati bilan ta`lim jarayoniga ilg`or pedagogik texnologiyalarni kiritishda eng muhimi o`quvchilarni ushbu faoliyatga tayyorgarligi va qiziqishlarini inobatga olish va kerakli texnologiyani tanlash hisoblanadi.

O`quv muassasasi u maktabmi, kollejmi, oliy o`quv yurtimi u yerda asosiy maqsad o`quvchi yoki talabaga bilim berish hisoblanadi. O`qituvchi bilim berishdan tashqari bilim berishning eng qulay, samarali yo`llarini izlab, ta`lim jarayonini qiziqarli va mazmunli o`tishini tashkil etadi. Bunday faoliyatning o`zini ta`lim texnologiyasi deb atash mumkin. Ta`lim texnologiyasi (yunoncha “tehné” – mahorat, san`at, “logos” – tushuncha, ta`limot ma`nolarini anglatadi) yoki pedagogik texnologiyada pedagogik ta`lim berishning turli yo`l, usullarini o`z faoliyatiga joriy etish bilan birga bu jarayonning natija berishiga ishonch hosil qilish kerak.

Pedagogik texnologiya uchun pedagogik mashg`ulot jarayonini belgilashdagi muhim vaziyat va holatlar: o`quvchi yoki talaba bilim olish jarayonida duch keladigan vazifalarni oldindan aniqlash, o`qitishning har bir bosqichida ta`limning mazmuni (o`quv rejasi, dasturi, mavzu mohiyati, o`quv – uslubiy manbalarni mavjudligi) ni belgilash, bilim va tushunchalar, ularni murakkablik darajasi va hajmini o`quvchining bilim va malakalariga moslik darajasini aniqlash, ta`lim – tarbiya shakllari va vositalari (qo`shimcha manbaalar, savol-javob, munozara, test savollari, ko`rgazmaliliklar, texnik vositalar yordamida eshitish, tinglash manbalari) ni tayyorlash; ta`limning natijasi va o`zlashtirish darajasi sifatini baholash mezonlariga mos ravishda o`quvchining egallagan bilim va malakalarini obyektiv baholash uchun dars va darsdan tashqari o`quvchiga beriladigan vazifalarni rejalashtirish kabilar pedagogik texnologiyalarning vazifalari hisoblanadi.

Pedagogika oliy o'quv yurtlarida bo'lg'usi o'qituvchilarni pedagogik faoliyatga tayyorlash bo'yicha quyidagilarga e'tibor qaratish lozim:

1. Texnologik yondashuv asosida faoliyat ko'rsatayotgan o'qituvchilarning yangicha va samarali ish sirlari tajribalarini o'rganish;
2. Pedagoglarning texnologik yondashuv faolligini oshirish va aksincha unda to'sqinlik qilayotgan muammolar sabablarini aniqlash texnologik yondashuv asosida ishlashning yanada samaraliroq yo'llarini izlash;
3. Tajribali o'qituvchilarning darslarini ilg'or pedagogik texnologiyalarini qo'llab o'tish borasidagi o'ziga xos usullari, ularni farqli va o'xshash jihatlarini kamchilik va yutuqlarini aniqlab o'z faoliyatida tadbiq etishga o'rganish.

Hozirgi davrda har bir o'qituvchi egallashi lozim bo'lgan ko'nikmalardan biri – darslarni pedagogik texnologiyalar asosida tashkil qilish va o'tkaza olish ko'nikmasidir. O'z tarkibiga ko'ra bu ko'nikma ham serqirra va murakkabdir. Ushbu yo'nalishdagi kuzatuvchilarimiz, tajribali pedagog o'qituvchilar bilan suhbat va mavzuga oid o'quv uslubiy va ilmiy manbaalarni o'rganish natijasida quyidagi xulosalarga keldik.

➡ darslarni pedagogik texnologiya asosida tashkil etish uchun avvalo o'quv mashg'ulotlari jarayonidan unumli foydalanish darsga nazariy va amaliy tomondan puxta tayyorgarlik ko'rish lozim;

➡ o'qituvchi o'quv mashg'ulotlari davomida egallagan va yanada mustahkamlab borishi lozim bo'lgan nazariy, pedagogik –psixologik va metodik bilimlarni amaliyotga ongli va samarali qo'llay olish;

➡ pedagogik texnologiyalarni tadbiq etish va aniq maqsad, loyiha asosida tizimli olib borilishiga erishish;

Xullas, pedagogik texnologiya – ta'lim usuli, ma'lum ma'noda ta'lim jarayoni, vositalari shakl va metodlari majmui. O'quv materiallarini tanlash, qayta ishlab, o'quvchilarni kuchi imkoniyatlari, fanni o'zlashtirish darajasi fanni spesifik tuzilishi xususiyatiga moslab shakli va hajmini o'zgartirish ham ta'lim

texnologiyasiga daxldor. O'qituvchining ta'lim jarayoni texnologik metodlar asosida tashkil etishi ko'p jihatdan uning o'ziga bog'liqligi, bilimi ularni har birini tashkiliy tuzilishi xususiyatlarini yaxshi bilishi ta'lim samaradorligi ta'minlashning muhim kafolati bo'ladi. O'qituvchining pedagogik texnologiyalarini qo'llashida ularni mazmunli va samarali tashkil etishga oid bilimlardan yaxshi habardor bo'lishi qo'llanilgan texnologiyalarni dars samaradorligiga ijobiy ta'siri va natijalarni tahlil qilish baholay olish, tegiushli xulosalar chiqara olishi, o'z faoliyatiga tanqidiy munosabatda bo'lishi, o'zgarar nazari bilan baholash o'z bilimlarini amaliy faoliyat bilan bog'lash o'quvchilarni darsda faol ishtirokini ta'minlay olishi muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois ilg'or, interfaol texnologiyalardan barcha fan o'qituvchilari, shu jumladan musiqa o'qituvchilari yaxshi habardor bo'lishlari zarur. Chunki, ta'lim-tarbiya mazmuni, maqsad va vazifalari fan taraqqiyoti natijasida kengayib bormoqda. Shu jarayonda o'qitishning shakl va usullari ha takomillashib bormoqda. Natijada inson faoliyatining asosiy yo'nalishlari ya'ni ta'lim tizimida ta'lim va tarbiyadan ko'zda tutilgan maqsadlarni to'liq amalga oshirish imkoniyatlarini beruvchi yaxlit tizimga, ya'ni texnologiyalarga aylanib bormoqda.

Shuni nazarda tutish kerakki, pedagogik texnologiya – bu jamiyat ehtiyojidan kelib chiqib, shaxsning oldindan belgilangan ijtimoiy sifatlarini samarali shakllantiruvchi va aniq maqsadga yo'naltirilgan o'quv jarayonini tizim sifatida qarab, uni tashkil qiluvchilar, ya'ni o'qituvchining o'qitish vositalari yordamida tahsil oluvchilarga ma'lum bir sharoitda muayyan ketma-ketlikda jo'rsatgan ta'sirini va ta'lim natijasini nazorat jarayonida baholab beruvchi texnologiyalashgan ta'limiy tadbiridir.

Hozir ta'lim-tarbiya sohasidagi rivojlanib borayotgan yo'nalishlardan biri – zamonaviy, ilg'or pedagogik texnologiyalarni o'quv jarayoniga qo'llash bo'lib, uni amalgam oshirish bilan ta'lim sifatini oshirish eng dolzarb talab va vazifalardandir.

Ma'lumki, ta'lim-tarbiya jarayoni katta avlod tomonidan o'z bilim va tajribalarini o'sib kelayotgan avlodga o'rgatishdan iborat bo'lib, bu jarayonda

asosan, inson hayoti uchun zarur axborot (bilim, malaka, tajribalarni) avloddan avlodga uzatish yo`lida amalgam oshiriladi. Ushbu aytilganlar asosida pedagogik texnologiyaning quyidagi eng asosiy umumlashtirilgan ta`rifini keltirishimiz mumkin: “Pedagogik texnologiya – barkamol insonni shakllantirish faoliyati”. Pedagogik texnologiya axborotlarni o`zlashtirish, ulardan amalda foydalanish, ulardagi yangi ma`no-mazmunni hamda axborotlar orasidagi turli bog`liqliklarni ochish orqali yangi axborotlar yaratishga o`rgatish jarayonidan iborat.

Demak, pedagogik texnologiya insonga oldindan belgilangan maqsad bo`yicha ta`sir o`tkazish faoliyatidfan iborat. Shuningdek, o`quvchini mustaqil fikrlash, mushohada qilish, bilim olish, darsning faol ishtirokchisiga aylanishini o`rgatishni kafolatlaydigan jarayondir.

1.2. Musiqa ta`limida pedagogik texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlari.

Mamlakatimizda yangilangan, jahon andozalariga mos keladigan ta`lim mazmuni o`z - o`zidan emas, balki, ilg`or pedagog – olimlar, metodist o`qituvchilar va jahon miqiyosida orttirilgan pedagogika fani yutuqlari orqali takomillashib boradi. Shu bois ham ta`limni hozirgi bosqichida uni isloh qilish vazifalari yangicha fikrlovchi, shiddatli axborot va axborot texnologiyalari, kompyuterlashgan modeli o`qitish tez rivojlanayotgan sharoitda yosh avlod ta`lim tarbiyasi uchun mas`ul ijodkor o`qituvchilarni shakllantirish vazifasini asosiy o`ringa qo`ymoqda.

Mavjud tajribalar shuni ko`rsatadiki, ta`lim mazmuni qanchalik yangilanmasin, mukammal o`quv dasturlari, darsliklar yaratilmasin, o`quv – tarbiya jarayonining samaradorligini ta`minlashda o`qituvchining pedagogik mahorati, yangi ta`lim texnologiyalarini o`zlashtirishi va ulardan ta`lim jarayonida unumli va o`rinli foydalana olishiga bog`liq bo`ladi.

Hozirgi kunda respublikamiz ta`lim tizimida “Ta`lim to`g`risida” gi qonun va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” ning eng asosiy sifat bosqichida belgilangan vazifalarni ro`yobga chiqarish bo`yicha chuqur o`zgarishlar amalgam oshirilmoqda. Milliy dasturda ko`zda tutilganidek, zamonaviy axborot texnologiyalari va kompyuterlar tarmoqlari negizida ta`lim jarayonini texnologiyalashtirish hamda axborot tizimi bilan ta`minlash jadal rivojlanmoqda. Fan va ta`limning moddiy, uslubiy bazasi mustahkamlanib, o`quv – uslubiy, ilmiy, innovatsion, zamonaviy vositalar mukammallashib o`quv jarayoniga tadbiiq qilinmoqda.

Ma`lumki, didaktikaning predmeti o`rgatish, o`rganish hamda ta`lim mazmunidan iborat. Bu uchala komponentdan birortasini e`tiborda tutmaslik ta`lim mazmunini yo`qqa chiqaradi. O`rgatish ham, o`rganish ham ularning oxirgi natijasi ham ta`lim mazmuniga bog`liqdir. Ta`lim jarayonida har-xil mavzularni o`ziga hos usullar bilan o`rganish uni o`ziga xosligi va mazmunidan kelib

chiqadi, bu esa asosan o'rganishni tashkil etuvchi, yani o'rgatuvchiga (Pedagog o'qituvchiga) bog'liq.

Xar qanday fanni, shu jumladan musiqa fanini o'qitish jarayonida ham faollashtiradigan, ularni darsning faol ishtirokchilariga, mustaqil fikrlovchi mushohada qiluvchi o'z fikrlarini bildira oluvchi o'quvchi sifatida namoyon qilishi uchun imkoniyat yaratuvchi – bu o'qituvchidir. O'qituvchi o'zi va o'rganuvchi o'quvchilar uchun qulay va qiziqarli bo'lgan o'qitish usullari, yo'llari, shakllari, vositalari ulardan foydalanish shart-sharoitlarini belgilaydi, ilg'or pedagogik texnologiyalar yordamida o'quv jarayoni samaradorligini oshirishga harakat qiladi.

Shu boisdan ham pedagogik texnologiya, didaktik texnologiya, ta'lim texnologiyalariga o'quv jarayonidagi eng samarali vositalar sifatida qaralmoqda. Ulardan bugungi kunda jahon pedagogikasi amaliyotida keng foydalanilmoqda.

Pedagogik texnologiya hozirgi kunda eng rivojlangan mamlakatlar ta'lim tizimida bo'lgani kabi bizning respublikamizda ham ta'lim jarayonini tashkil qilish, boshqarish, nazorat qilish bilan bog'liq ishlarda ustuvor o'rini egallamoqda. Shuning uchun ham pedagogik texnologiyalardan barcha pedagoglar yaxshi xabardor bo'lishi, ta'lim jarayonida ularni qo'llab dars o'tishlariga muhim e'tibor berilmoqda. Bu aynan jamiyat taraqqiyotining obyektiv qonuniyatlariga mos bo'lib, jamiyat taraqqiy etishi bilan ta'lim – tarbiya mazmuni, maqsad va vazifalari shunga mos ravishda takomillashib borishi bilan bog'liqdir. Hozirgi sharoitda inson faoliyatining asosiy yo'nalishlari taraqqiyotga mos maqsadlarni to'liq amalga oshirish imkoniyatlarini beruvchi modelli tizimga, ya'ni ta'limni texnologiyalashtirishga aylanib bormoqda. Shu tufayli fan sohalarining barchasida bo'lgani kabi musiqiy ta'limda ham yangi texnologiyalarga e'tibor kuchayib bormoqda.


O'zbekistonning "Ta'lim to'g'risida"gi qonuniga ko'ra 9+3 yillik majburiy umumiy va o'rta maxsus ta'lim joriy etildi. Ta'limni demokratlashtirish, individuallashtirish, tabaqalashtirish, mintaqaviy xususiyatlarni hisobga olish tamoillari asosida barcha o'quv predmetlari qatori musiqa predmeti bo'yicha ham

o'qitish Konsepsiyasi ishlab chiqildi. Unda musiqiy ta'lim mazmunini milliy negizda shakllantirish, milliy musiqiy merosdan to'laonli foydalanish, xalq kuy – qo'shiqlari, doston, mumtoz va maqom hamda ularning ta'sirida yaratilgan zamonaviy musiqalar vositasida o'quvchi yoshlarni milliy qadryatlarimizni teran anglaydigan, vatanga, o'z xalqiga, tilimizga, dinimizga, tariximizga, san'atimizga ongli munosabatda bo'ladigan va unga vorislik qila oladigan ma'nan yetuk, barkamol shaxsni tarbiyalash asosiy maqsad va vazifa sifatida ko'rsatilgan.

Ta'lim jarayonida o'quvchilar musiqa san'atini butun nafosati bilan o'rganishlari, idrok etishlari ommaviy musiqa faoliyatlari: musiqa tinglash, tahlil qilish, jamoa bo'lib qo'shiq kuylash, nazariy bilimlarni o'zlashtirish (musiqa savodxonligi) raqsga tushish, bolalar cholg'u asboblarida chalish va musiqa ritmek jo'r bo'lish masalalarini shakllantirish musiqiy ta'limning asosiy mazmunini tashkil etadi.

Pedagogik texnologiyalarni barcha turlarida birdek qo'llaniladigan va ta'lim-tarbiya jarayonini tadrijiy tarkib topishida va rivojlanib borishida hal qiluvchi omillar hamda tarkibiy elementlar uch xil faoliyatdan iborat bo'lib, ular so'zlash, ko'rsatish va mashqlar bajarishdan iborat bo'lib musiqa darslariga uni tadbiiq etilganda quyidagicha ketma-ketlik va bog'liqlikda amal qiladi:


1. O'qituvchi faoliyatidagi asosiy jarayonlar ketma-keiligi:



Bu jarayon pedagogik texnologik o'zagini tashkil qiladi.

2. O'quvchi faoliyatidagi asosiy jarayonlar:

2-jadval



Pedagogik texnologiyaning asosiy elementlari bo'lgan ushbu so'zlash, ko'rsatish va mashqlar bajarishni texnologik jarayonning uch tarkibiy qismi sifatida tahlil qilish mumkin. Musiqa darslari jarayonida ular keng ko'lamli faoliyat sifatida namoyon bo'ladiki bu o'rinda musiqa darslarini faoliyatlar negizida tashkil etilishi bilan bog'liq katta imkoniyatlari muhim ahamiyat kasb etadi.

Bu jarayonlar bilan bog'liq umumiy tushunchalarni jadvallar shaklida quyidagicha ifodalash mumkin.

Pedagogik texnologiyaning soʻzlash jarayonida oʻqituvchi va oʻquvchi faoliyati hamda ular uchun zarur boʻlgan vositalar:

Oʻqituvchi		Oʻquvchi	
Faoliyati	Vositalari	Faoliyati	Vositalari
<ul style="list-style-type: none"> - soʻzlash; - tushuntirish; - savol–javob; - bahs; - munozara; - muhokama; - rahbarlik; - tanbeh; - ragʻbatlantirish; - nazorat; - ijodkorlik. 	<ul style="list-style-type: none"> - matnlar; - axborot (mavzu) va u haqidagi bilim; - mantiq; - malaka; - mahorat ; - dunyoqarash; - nutq; - intonatsiya; - diksiya; - artistizm; - obrazlilik. 	<ul style="list-style-type: none"> - tinglash; - oʻzlashtirish; - savol-javob; - yozib olish; - bayon qilish; - yodda saqlash; - mushohada qilish; - axborot toʻplash; Va boshqalar. 	<ul style="list-style-type: none"> - motivlar; - diqqat; - xotira; - musiqiy eshitish; - qobiliyat; - malaka; - koʻnikma; - dunyoqarash; - nutq ; - intonatsiya; - diksiya; va boshqalar.

Bu jadvaldagi har bir tushuncha va ular orasidagi bog'liqliklar alohida tizimni tashkil qiladi. Bu yerda pedagogik texnologiya asosan psixologik omillarga, jumladan o'qituvchining pedagogik mahorati, malakasi, o'quvchining iste'dodi, iroda, xotirasiga bog'liqligiga e'tiborni qaratish lozim.

Jadval-4

Ko'rsatish (ko'rgazmali) o'quv jarayonida o'qituvchi va o'quvchi faoliyati hamda ular uchun zarur bo'lgan vositalar.

O'qituvchi		O'quvchi	
Faoliyati	Vositalar	Faoliyati	Vositalar
- ko'rsatish;	- sinf doskasi;	- ko'rish;	- diqqat;
- namoyish qilish;	- bor;	- kuzatish;	- xotira;
- tasvirlash;	- nota yozuvi;	- o'zlashtirish;	- kuzatuvchanlik;
- kuylab berish;	- plakatlari;	- taqqoslash;	- qobiliyat;
- ijro etish;	- chizmalar;	- yozish, chizish;	- nota daftari;
- yozib ko'rsatish;	- kompyuter;	- harakatlarni o'rganish;	- cholg'u asbobi;
- amaliy misollar;	- musiqiy yozuvlar;	- umumlashtirish;	- qalam, ruchka;
- nazorat ;	DVD,VCD, CD;	- tahlil qilish;	- musiqali disklar;
- tahlil;	- cholg'u asboblari;	- xulosalash va boshqalar.	- kassetalar.
- rahbarlik	- audio video tasvirlar;		
- tushuntirish.	- darsliklar va boshqalar.		

Mashqlar bajarish jarayonida o`qituvchi va o`quvchi faoliyati va zarur vositalar.

O`qituvchi		O`quvchi	
Faoliyati	Vositalar	Faoliyati	Vositalar
- mashq bajarish tartibini ko`rsatib berish;	- topshiriqlar ;	- tushunish;	- tafakkur;
- interval, akkord, uchtovushlik va hokazolarni kuylash;	- cholg`u asboblari;	- bajarish;	- xotira;
- ovoz hosil qilish;	- nota yozuvi;	- takrorlash;	- eshitish qobiliyati;
- nafas olish, sarflash;	- tarqatma materiallar;	harakatlarni bajarish;	- cholg`u asboblari;
- talaffuz;	- nazorat savollari;	- mustaqil ishlash;	- qobiliyat;
- intonatsiya;	- nota daftari;	- fikrlash;	- mashq daftari;
- soz;	- uyga vazifa.	- umumlashtirish ;	- fortepian o`quv turli materiallari va hokazolar
- ansambllilik ;		- o`z ijrosini nazorat qilish	
- jo`rsiz kuylash.			

Mashqlar o`zlashtirishni mustahkamlaydigan o`quv jarayoni hisoblanadi. Mashqlar har fanda, jumladan musiqa darslarida o`ziga xos mazmunda bo`ladi. Masalan, musiqa tinglash faoliyatida kuyning tonalligini o`lchovi, tempini, harakteri, janrini aniqlash musiqa savodxonligi faoliyatida interval va akordlarni aniqlash, intervallarni tuzish, dinamik tuslarini aniqlash, nazariy tahlil qilish, jamoa kuylash jarayonida ovoz sozlari (vokal, xor) mashqlarini kuylash asarini murakkab joylarini mashq qilish, saf intonasiya, diksiya ustida ishlash, major va minor uchtovushliklarini kuylash, jo`rsiz kuylash va x.k shular jumlasidandir.

Har bir fan (dars)ning o`ziga xos xususiyati bo`lishi tabiiydir. Musiqa o`qitishning ham o`ziga xoslik tomonlari ko`p. Bu uning tashkiliy tuzilishi va amaliy ijrochilik bilan bog`liq ko`rinishlarida yaqqol namoyon bo`ladi. Shuning uchun darsning har bir faoliyat turida ilg`or pedagogik texnologiyalardan samarali foydalanish mumkin. Darsda olib boriladigan o`qituvchini turli faoliyat shakllari ma`ruza, hikoya, tushuntirish, namoyish qilish, ko`rsatish, tinglantirish, suhbat, savol – javob, jamoa bo`lib kuylash ovoz sozlash mashqlari kabilarni har birini mazmun va mohiyati mavjud shart – sharoit, o`qituvchi va o`quvchilar imkoniyatiga muvofiq tarzda texnologiyalarni tadbiq etish mumkin. Bunda musiqa o`qituvchisining ham o`ziga xos xususiyatlari namoyon bo`ladi. Musiqa san`atiga muhabbat, qiziqish, darsni emosional ko`tarinki ruhda o`tkazish, o`zida artistlik, rejissyorlik, dramaturglik, mahoratlarini rivojlantirib borish, bolalarni sevish, ulardagi musiqiy qobiliyat va qiziqishlarni e`tiborga olish ularni ro`yobga chiqarishga intilish, yaxshi xonandalik, cholg`uchilik mahoratiga ega bo`lishlik shular jumlasidandir. Chunki, o`qituvchining ta`kidlab o`tilgan xususiyatlarning o`zi ham darsda o`quvchilar uchun texnologik ibrat xizmat qilishi mumkin.

Agar o`qituvchida mavjud xususiyatlar bo`lmasa har qanday pedagogik texnologiyalar ham quruq, mazmunsiz va qiziqarsiz, samarasiz bo`lib qolishi ham hiech gapmas. Chunki har qanday ta`lim shakli, modeli, turi o`qituvchining pedagogik mahorati, bilimi, malakasi va artislik iqdorisiz kutilgan natijani bermasligi aniq.

Ma'lumki, musiqa o'qituvchisi o'quv tarbiya ishlarini baravariga olib boradi. O'quvchilarni musiqa san'ati orqali tarbiyalashda o'qituvchining yaxshi sozandalik mahorati, yaxshi ovozga ega bo'lishi nota o'qish, turli vositalardan oqilona va o'rinli foydalana olishi, so'z mahorati, o'quvchilarni qobiliyatlarini oshira bilishi muhim. Jonli ijro (cholg'u asboblarda chalish, qo'shiq kuylash) etilgan kuy- qo'shiq sinfda o'quvchilarga o'zgacha ruhda ta'sir etadi, kayfiyatlarini ko'taradi.

Musiqa o'qituvchisi bulardan tashqari darslarni kuzatib borishi lozim. Doimiy kuzatishlar sababli o'qituvchi pedagogik mahoratini oshirib boradi. U vaziyatni baholashga, o'quvchilarni ichki tuyg'u, qiziqish va qobiliyatlarini sezishga o'rganadi. Kuzatish birinchi sinfdan -yettinchi sinfga qadar davom etadi. Bunda qo'llanilayotgan usul, shakl va pedagogik texnologiyalarning ham samaradorlik, qulaylik bolalar uchun qiziqarli va o'ng'aylik jihatlari aniqlanib boriladi.

Musiqa ta'limining o'ziga xosligi tashkiliy tuzilishi, amaliy ijrochilik faoliyatlari, shuningdek o'qitish usullari, ularning samaradorligini ta'minlovchi omillar, vositalar tahlili va ularni umumiy ijodiy – ijobiy jihatlarni umumlashtirish musiqa ta'limini o'zigagina xos bo'lgan yangi turlarini ishlab chiqish imkonini berdi. Bular ham o'z maqsadi va bajaradigan vazifasi mazmun va mohiyatiga ko'ra pedagogik texnologiya bo'lib, ularni musiqa mashg'ulotlariga tadbiq etish yaxshi natija bermoqda. Bunday darslar o'quvchilarda yaxshi kayfiyat, jo'shqinlik, ko'tarinki ruh va intilishni kuchaytirmoqda. Ular qatoriga hozirgi kunda ilg'or, tashabbuskor o'qituvchilar tomonidan keng qo'llanilayotgan quyidagi texnologik darslarni alohida ko'rsatishimiz mumkin:

- ♪ konsert darslar;
- ♪ viktorina darslari;
- ♪ intervyu darslari;
- ♪ konkurs darslari;
- ♪ yo'naltiruvchi darslari;

- ♪ doira stol atrofidagi darslari;
- ♪ o'z – o'zini anglash darslari;
- ♪ o'yla – izla top;
- ♪ kuyni top;
- ♪ himoya darslari;
- ♪ quvnoqlar va zukkolar darslari;
- ♪ bahs – munozara darslari;
- ♪ men dirijyor darslari;
- ♪ musobaqa darslari va h.k.

Bu darslarning har biri o'z tuzilishi, vazifasi, maqsadi va metodik asoslariga egadir. Boshlang'ich sinflarda musiqa darslarini o'yin tarzida (qo'shiqlarni, o'yin orqali, tashkil etish, musiqaga raqsga tushish “chigil yozdi o'yin”lari) olib borilganda o'quvchilarning faolligi oshadi va ular berilgan topshiriqlarni nisbatan oson bajaradilar. Manashu aytib o'tilganlarning o'ziga ham musiqa darslarini o'z tabiatiga ko'ra yangi – yangi o'ziga xos va zamonaviy interfaol usullardan foydalanishida keng imkoniyatlariga ega ekanligini ko'rsatadi va yana bir -bor o'rinda musiqa o'qituvchisining zukkoligi, mahorat, tajribasi va qanday texnologiyalardan, qanday faoliyat mavzularini o'tishda, pedagogik shart –sharoit va o'quvchilarning qiziqishi va imkoniyatlarini hisobga olgan holda tanlashi va qo'llashi hal qiluvchi yahamiyat kasb etadi.

Masalan, konsert darslarini o'quvchilarda sahna madaniyatini shakllanishiga, o'zlarini ko'pchilik oldida ko'rsatish, yaxshi imkoniyatlarini namoyish etish, o'zini artistlardek tutish xislatlarini o'sishiga, viktorina darslari o'quvchilarda topqirlik, izlanuvchanlik, tez fikrlash, eslab qolish qobilyat va ko'nikmalarini rivojlanishiga, bahs – munozara darslari ham o'quvchilarni mustaqil fikrlash, hozirjavoblik, mavzu va masalalarga ijobiy yondoshish, nutqlarini teranlashib borishiga ijobiy ta'sir etadi.

Quvnoqlar va zukkolar darsida o'quvchilar o'zlarining topqirlik, zukkolik, xushyorlik, maqsad sari intilish kabi sifatlarini namoyish etadilar.

Tahlil darsida musiqa savodi, musiqa tinglash, qo`shiq kuylash jarayonlarida o`tilgan asarlarni mukammal tahlil qilishga e`tibor qaratiladi, bunda o`quvchilarni nazariy savodxonlik malakalari muhim rol o`ynaydi.

O`yin darslari juda xilma – xil shakllarda o`tkazilishi mumkin. Masalan, musiqiy cholg`ular mavzusini o`tganda o`quvchilarga turli xildagi musiqa cholg`u asboblari surati solingan kartochkalar beriladi. O`qituvchi magnitafon yordamida biror bir milliy cholg`u asbobida ijro etilgan musiqani eshittiradi. Oquvchilar o`z navbatida musiqiy asar qanday cholg`u asbobida ijro etilganligini qo`llaridagi kartochkalar orqali ko`rsatadilar. Eng faol qatnashgan va topqir o`quvchilar baholanadilar va rag`batlantiriladilar. Viktorina, konsert, bahs – munozara, kuyni top kabi darslar o`quvchilarning nazariy va amaliy o`zlashtirgan bilimlariga asoslangan holda o`tkaziladi. Dars – sayohat esa ijodiy jamoalarga, turli madaniy – ma`rifiy tadbirlarga yoki bo`lmasa video tasma yordamida tabiat qo`yniga, shaharlarga musiqiy sayohat tarzida uyushtiriladi.

Musiqa darslarini tshkiliy tuzilishi va shakllariga ko`ra yana keng qo`llaniladigan quyidagi turlarini ham ko`rsatib o`tish mumkin:

1. Tashkiliy darslar;
2. Aralash darslar;
3. Dominantali (darsdagi biron bir faoliyat turi qo`shiq kuylash, musiqa tinglash, musiqa savodxonligi, musiqiy ijodkorlik boshqalaridan ustunroq bo`ladi) darslar;
4. Kontrol – tekshiruvchi darslar;
5. Umumlashgan darslar;
6. Intervyu darslar;
7. Himoya darslari;
8. Yakunlovchi darslar.

II BOB: Musiqa madaniyati darslariga ilg'or pedagogik texnologiyalarni. tadbqiq etish yo'llari.

2.1. Musiqa o'qituvchilarini innovatsion faoliyatga tayyorlash mazmuni.

O'zbekiston Respublikasining taraqqiyoti va istiqbolini ta'minlash iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy va madaniy sohalarda bo'layotgan o'zgarishlarga bog'liq bo'lib, bunday o'zgarishlarda faol ishtirok etish uchun kasbiy soha egalaridan yuqori darajadagi umumiy va maxsus bilimlar, intellektual salohiyat, keng dunyoqarash va axborot kommunikatsiyalaridan ustalik bilan foydalanish malakalariga ega bo'lishlik talab etiladi. Ana shu talablar asosida pedagog kadrlarni tayyorlash bugungi kunning eng muhim vazifalaridan biridir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti ta'kidlaganidek: “Bugungi kunda oldimizga qo'ygan buyuk maqsadlarimiz, ezgu niyatlarimizga erishishimiz, jamiyatimizning yangilanib borishi, hayotimizning taraqqiyoti va istiqboli amalga oshirayotgan islohotlarimiz, rejalarimizning samarasi, taqdiri, bularning barchasi, avvalambor, zamon talablariga javob beradigan, yuqori malakali, ongli mutaxassis kadrlar tayyorlash muammosi bilan chambarchas bog'liqligini barchamiz anglab yetmoqdamiz¹”!

Shuning uchun ham “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” maqsad va vazifalarini amalgam oshirishning birinchi bosqichida “Pedagog va ilmiy pedagog kadrlar tayyorlash hamda ularning malskasini oshirishni zamon talablariga javob berdigan darajada tashkil etish” belgilangan.

Ikkinchi bosqichda ta'lim muassasalarining texnika va axborot bazasini mustahkamlash davom ettiriladi, o'quv –tarbiya jarayoni yuqori sifatli o'quv adabiyotlari va ilg'or pedagogik texnologiyalar bilan ta'minlanadi. Shu ma'noda ilg'or pedagogik texnologiyalarni amalga joriy etish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun ham o'qituvchi kasb mahoratini yanada takomillashtirish, pedagogik kadrlarni tayyorlash jarayonini texnologik yondashuv asosida tashkil

¹ I. Karimov. Barkamol avlod- O'zbekiston taraqqiyotining poydevori.- Toshkent, Sharq, 1997. 5-bet

etish bilan bo'lg'usi o'qituvchilarni mazkur faoliyatga tayyorlash bugungi kunning muhim talablaridan biridir.

Ta'limga texnologik yondashuv pedagogik jarayonga faol ta'sir etuvchi va uning samaradorligi, bir butunligi va muvoffaqiyatini belgilab beruvchi omillardan biri bo'lib hisoblanadi.

Oliy o'quv yurtlarida tahsil olayotgan bo'lajak o'qituvchilarni shu jumladan musiqa o'qituvchilarini ham, xozirgi zamon talablari asosida puxta kasbiy tayyorgarlikka ega, o'z kasbining mohir ustasi bo'lib yetishlariga asosiy e'tiborini qaratmoq fan va ta'lim qolaversa kadrlar tayyorlash tizimi oldiga qo'yilayotgan eng dolzarb vazifalardandir.

O'qituvchi qanchalik bilimdon o'z kasbini puxta egallagan va zamonaviy pedagogik texnologiyalardan mahironi foydalana oladigan bo'lsa, u kelajak avlodni ham shunchalik bilimdon har tomonlama barkamol inson qilib tarbiyalay oladi. Oliy pedagogik ta'limda bo'lajak musiqa o'qituvchilarni pedagogik faoliyatga tayyorlashda va musiqiy fanlardan –musiqa o'qitish metodikasi, musiqa nazariyasi va taxlili, xor va xorshunoslik, dirijyorlik, solfedjio kabilardan bilim va malakalari va eng muhimi o'z tanlagan kasblariga munosabati muhim o'rin tutadi. Bu borada musiqiy ta'lim yo'nalishida tahsil olayotgan talabalarni bilim, saviya, musiqiy tayyorganrlik va kasbga munosabatlari turlicha bo'lishini ham ta'kidlab o'tishi joiz. Bu o'rinda ularni uch toifaga ajratish mumkin:

1. Musiqa bo'yicha bazaviy ma'lumotga ega bo'lgan, kasbini sevadigan, kelgusida o'qituvchi bo'lish orzulari amalga oshishi uchun zarur bilim, ko'nikma va malakalarni chuqur egallashga astoydil intilib o'qiydigan talabalar;

2. Musiqaga ixtidori va qobiliyati mavjud, lekin, barcha fanlarga ham astoydil qiziqavermaydigan va o'zlarini kelajak faoliyatida zarurligini his qilmaydigan talabalar. Bular pedagogik faoliyatning turli tomonlarini puxta o'zlashtirib ololmaydilar.

3. Bu toifadagi talabalar o'quv yurtiga o'z xoxish – istaklariga qarshi majburan kirib qolgan bo'lib, bu ularni o'qishiga o'z ta'sirini o'tkazadi. Ular

pedagogik kasbida o'qib turib kelajakda bu sohada ishlashni asosiy maqsad qilib qo'ymaydi.

Bo'lajak o'qituvchilarni o'qish davomida innovasion faoliyatga tayyorlash ularni pedagogik faoliyatga tayyorlash ishlari bilan yaxlit bir butunlikda olib borilsagina bu faoliyat samarali va maqsadga muvofiq bo'ladi. Musiqiy ta'lim yo'nalishida fanlar integrasiyasi shunday ko'rinish kasb etadiki har bir fan o'z navbatida ikkinchi, uchinchi va h.k. barcha musiqiy, amaliy – nazariy bilimlar jamlanmasini o'zida mujassamlashtirgan holda kerakli ko'nikma va malakalarni o'zlashtirishni taqozo etadi. Masalan cholg'u asbobida ijrochilik mahoratini egallash uchun musiqa nazariyasi (musiqani ifoda vositalari), solfedjio, (nota o'qish) musiqa asarlari tahlilini, xor va xorshunoslik fanida esa vokal kuylash, nazariy savodxonlik, dirijyorlik, xor aranjirovkasi, asarlar tahlili bo'yicha ma'lum bilimlar zahirasi talab qilinadi. Shu bois har bir fan o'qituvchisi o'zi dars berayotgan fanning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib talabalarni pedagogik texnologiya faoliyatiga tayyorlab borishi kerak bo'ladi. Hozirgi kunda oily ta'lim tizimida buy o'nalishdagi ishlarni kuzatish va tahlil qilish shuni ko'rsatadiki musiqiy ta'limy o'nalishida faoliyat yuritayorgan professor – o'qituvchilarni aksariyati talabalarni texnologik faoliyatga tayyorlashga o'zini hech bir aloqasi yo'q deb biladi. Bu ish bilan shug'ullanishni "Pedagogika" fani yoki "Musiqqa o'qitish nazariyasi va metodikasi" fani o'qituvchilarining ishi deb qarashadi, yoki umuman bu ishga e'tibor berishmaydi. Bunga sabab birinchidan professor – o'qituvchilarni o'zlarini ushbu faoliyatga tayyor emasliklari bo'lsa, ikkinchidan bo'lg'usi pedagog – kadrlarni texnologik faoliyatga tayyorlab borishning ijtimoiy, siyosiy zarurat sifatidagi mohiyatini tushunmasligidir.

Bo'lajak musiqa o'qituvchilarini texnologik faoliyatga tayyorlash bir fan doirasida emas, barcha fanlarni o'qitilishida yaxlit tizim asosida tashkil etilsagina kutilgan natijaga erishish mumkin. Ya'ni musiqani xor va xorshunoslik, dirijyorlik, vocal ijrochiligi, cholg'u ijrochiligi, musiqa tarixi,

musiqiy asarlar tahlili, musiqa o`qitish metodikasi (bu fanlar talabani kelajakdagi musiqa o`qituvchilik faoliyatida muhim o`rin tutuvchi fanlar hisoblanadi) kabi fanlar o`qitilishi jarayonida kasbga tayyorlash va texnologik jarayonga tayyorlash ishlari bir – biri bilan uzviy bog`liq holda amalga oshirilsa va tadbirlarning (mashg`ulotlarning) har biri bosqichma – bosqich bo`lajak o`qituvchilarni ta`lim jarayonini mohirona ilg`or pedagogik texnologiya asosida tashkil etishga tayyorlasagina u bir butun tizim sifatida samaradorlik kasb etadi.

Bo`lajak o`qituvchilarni ta`lim jarayonida texnologik yondashuvga tayyorlashda ayniqsa pedagogik amaliyot muhim o`rin egallaydi. Hozirgi kunda musiqiy ta`lim ixtisosligining har bir bosqichida talabalar o`quv, malakaviyamaliyotga chiqadilar. Birinchi kursda 2 hafta, 2-3-kurslarda 4 haftalik, 4 – kursda esa 14 haftalik pedagogik amaliyotlar ularni kasbga tayyorlashda muhim davrni tashkil etadi. Agar mana shu jarayonda talabalarni pedagogik texnologik tayyorgarligiga e`tibor qilinmasa, u holda xuddi biz yuqorida ta`kidlaganimizdek muammo vujudga keladi. Chunki amaliy ish faoliyatidagiga nisbatan talabalik davrida pedagogik texnologiyalar va ularni dars jarayonida qo`llash, tadbiriq etish malakalarini egallash ancha qulay, samarali va zamonaviy talablarga mos bo`ladi.

Pedagogik amaliyotlar jarayonida talabalar o`zlarida yetishmayotgan kamchiliklarni aniqlaydilar, ularni tuzatish ustida ishlaydilar, bu jarayon ular uchun obrazli qilib aytganda “katta konsart oldidan generalniy repetitsiya” vazifasini o`taydi. Bu jarayonda ular erkin holda o`zlarini sinab ko`radilar, ularning kasbiy tayyorgarligi, pedagogic faoliyatni ilg`or pedagogik texnologiyalar bilan bog`liqlikda olib bora olishi yoki yo`qligi masalasi oydinlashadi. Shu bilan birga talabalar faqat pedagogik amaliyot jarayonidagina o`qituvchilik kasbining turli – tuman, qiyin va ijodiy tomonlarini bevosita ko`rib, boshdan kechiradilar.

Kuzatuvlarimiz yaxshi tashkil etilgan pedagogik amaliyot jarayonida bo`lajak o`qituvchilarni kasbiy shakllanishi yanada faol kechishini ko`rsatdi. Chunki, doimiy ravishda ilg`or, tajribali o`qituvchilar bilan bo`lgan aloqa,

ularning ijodiy ishlarini bevosita kuzatish, o`rganish, eng yaxshi tajribalarni egallashlari va o`zlashtirishlariga yordam beradi.

Hozirgi davrda har bir o`qituvchi egallashi lozim bo`lgan eng muhim ko`nikmalardan biri darslarni pedagogik texnologiyalar asosida tashkil qilish va o`tkaza olish ko`nikmasidir. O`z tarkibiga ko`ra bu ko`nikma anchagina murakkabdir. Buning uchun:

♪ Talabalarni innovatsion faoliyatga tayyorlash va unga oid ko`nikma va malakalarni shakllantirish uchun avvalo o`quv – biluv faoliyatidan unumli foydalana bilish, talabalarni har bir fan o`qitilishida pedagogik texnologiyalarni qo`llay olish mahoratlarini egallab borishlariga erishish zarur. Masalan, dirijyorlik mashg`ulotlari jarayonida “Talaba treningi”, “Men dirijyor”, “Klaster”, Musiqa nazariyasi fanini o`tishda “Aqliy hujum”, “Skarabey”, “Bahs - munozara”, “Muloqot”, “Guruh bo`lib ishlash”, Xor va xorshunoslik asoslari mashg`ulotlarida “Kichik guruhlar holiday ishlash”, “Individual ishlash”, “Differensial guruhlariga bo`lish”, “Multimedia texnologiyasi”, “Konsert darsi”, Musiqa tarixi fanini o`tishda “Muammoli vaziyat”, “Viktorina darsi”, “Savol - javob”, Cholg`u ijrochiligi darsini o`qitishda “Kuyni davom ettir”, “Dars sayohat”, “Konkurs darslar” texnologiyalarini qo`llash va talabalarni bunday faoliyatga tayyorlab borish mumkin.

♪ Pedagogik faoliyatga texnologik jihatdan talabalarni tayyorlash talaba o`quv mashg`ulotlari davomida egallagan va amaliy mashg`ulotlar, pedagogik amaliyotlar davomida mustahkamlab borish lozim bo`lgan nazariy psixologik, pedagogik va metodik bilimlarni amalda ongli, ishonchli va muvaffaqiyatli qo`llay olishiga ko`p jihatdan bog`liqdir.

Ta`lim jarayonida talabalarni innovatsion texnologik faoliyatga tayyorlab borishning asosiy metodlari quyidagilardan iborat:

1. Talabalarga ma`lum ko`nikmalarni hosil qilishlari uchun beriladigan topshiriqlar va ularni nazariy va amaliy o`zlashtirishining tizimli yo`lga qo`yilishi;
2. Pedagogik texnologiyalarni ayrim usullarini dars jarayonida pedagogik amaliyotda mustaqil mashq qilishlari;
3. O`qituvchi doimiy ravishda talabaning pedagogik texnologiyalarni o`zlashtirishi va amaliyotda qo`llay olish ko`nikmasini kuzatib, maslahatlar berib borishi;
4. Talabalarni pedagogik texnologiyalarni qo`llash bo`yicha egallagan ko`nikma va malakalarini sinf qismida, guruh bo`lib muhokama qilib borish;
5. Talabalarni o`z ishini va o`rtoqlari ishini kuzatish va tahlil qilish va unga baho berishga o`rgatib borish;
6. Talabalar o`rtasida turli tanlov va musobaqalar o`tkazish ularga ijodiy mehnat namunalarini ko`rsatish va h. k.

O`qituvchi dars mazmuni va mavzusiga ko`ra darsda qo`llanadigan texnologiyani tanlaydi, bunda asosiy e`tibor, maqsad aniq natijaga erishishga qaratiladi. Albatta bu o`rinda o`quvchilarning bilish saviyasi, qiziqishi va intilishlari mavjud shart – sharoit hisobga olinadi. Masalan, magnitafonda musiqiy asarni eshitish, so`ngra munozara, doira stol atrofida jamoaviy tarzda uni tahlil qilish, erkin munozara asosida asar haqida (nazariy, badiiy - matn) kerakli ma`lumotlarni o`zlashtirish mumkin. Shuningdek, ko`rgazmali vositalar, tarqatma materiallar, turli adabiyotlar, axborot manbalardan ijodiy foydalanish mumkin.

O`qituvchi bilan bir qatorda o`qitish jarayoni oldindan loyihalashtirish zarur. Bu jarayonda o`qituvchi o`quv materialining mazmuni, sinf imkoniyatini, hisobga oladi-o`quvchilarni dars faoliyatini markaziga asosiy harakatlantiruvchi kuchga aylantirish kerak.

Darsni yaxshi natijaga olib kela oladigan darajada loyihalashtirish uchun o`qituvchi tomonidan bo`lajak darsni texnologik xaritasini tuzib olishi katta ahamiyatga egadir, chunki darsning texnologik xaritasi har bir mavzu, har bir mashg`ulot xususiyatidan o`quvchilarning imkoniyat va ehtiyojidan kelib chiqqan holda tuziladi. Bunday texnologik xaritani tuzishning o`ziga xos murakkablik tomonlari mavjud. Buning uchun o`qituvchi pedagogika, psixologiya xususiy metodika, informatika va axborot texnologiyalaridan habardor bo`lishi, shuningdek, juda ko`p metodlar, usullarni bilishi kerak bo`ladi. Har bir darsni rang barang qiziqarli va mazmunli bo`lishi avvaldan puxta o`ylab tuzilgan darsning loyihalashtirilgan texnologik xaritasiga ko`p jihatdan bog`liq.

Darsning texnologik xaritasini qay ko`rinishda yoki shaklda tuzish, bu tajribali, qo`ygan maqsadga bog`liq. Texnologik xarita qanday tuzilgan bo`lmasin o`zida dars jarayoni yaxlit holda aks etgan bo`lishi hamda aniq belgilangan maqsad, vazifa va kafolatlangan natija o`z ifodasini topgan bo`lishi muhimdir. Texnologik xaritani tuzish o`qituvchini darsni kengaytirilgan kospektini yozishdan halos etadi. Chunki bunday xaritada darsning barcha qirralari o`z aksini topadi.

O`qituvchi tomonidan o`zi o`qitayotgan fanning har bir mavzusi bo`yicha tuzilgan texnologik xarita unda har bir mashg`ulotni yaxlit holda tasavvur etib yondashishga tushunishiga yaxlit o`quv jarayonining boshlanishi mazmuni, maqsadidan tortib, erishiladigan natijagacha ko`z oldiga keltirgan holda darsni tashkil qilishiga imkoniyat yaratadi.

Dars jarayonida qo`llanilayotgan ilg`or pedagogik texnologiyalar o`quvchilarni erkin fikrlashga, izlanishga har bir masalaga ijodiy yondashishi, mas`uliyatni sezish, o`z ustida mustaqil ishlash, tahlil qilish, ilmiy – uslubiy adabiyotlardan, darsliklardan unumli foydalanishga, eng asosiysi fanga, mavzu bo`yicha bilim va malakalarni egallashga qiziqishlarini kuchaytirishi lozim.

Dars jarayonida o`quvchilarni nazorat qilib borish alohida jarayon bo`lib, har bir mashg`ulotning maqsad va mazmuniga muvofiq amalgam oshiriladi.

Nazoratning eng haqiqiy va to'g'ri, samarali shakli bu – o'z – o'zini nazorat qilish hisoblanadi. Bu o'qituvchi uchun ham o'quvchi yoki talaba uchun ham birdek zarurdir.

Har bir fanning o'qitilishini o'ziga xos xususiyatlari bo'lgani singari musiqa o'qituvchisining ham o'ziga xos “sir”lari ya'ni metodi, o'ziga xos yondashuvi, tashkil etish, uyushtirish, bolalar bilan muloqot qila olish xislatlari bo'ladi. Bular ichida umumiy bo'lgan xususiyatlar bu musiqa san'atiga, o'z kasbiga muhabbat, darslarga puxta tayyorgarlik ko'rish, o'quvchilarga ko'proq bilim va tushunchalar berish, o'tilgan mavzularni to'liq va mukammal o'zlashtirishga intilib, fidoiylik bilan, o'qituvchilik faoliyatidagi hayot bilan yashash.

Musiqa o'qituvchisi o'quv va tarbiya ishlarini barobar olib boradi. U faqat o'z mutaxassisligi bo'yicha keng bilimga ega bo'lib qolmay, musiqaga oid boshqa fanlardan, adabiyot, tasviriy san'at kabi fanlardan ham yaxshi bilimga ega bo'lishi lozim. Oquvchilarni musiqiy, badiiy, estetik tarbiyalovchi shaxsning dunyoqarashi, fikrlash tushunchasi, o'z kasbiga sadoqati va o'z mahoratini uzluksiz oshirib, takomillashtirib borishi birinchi darajali ahamiyatga ega bo'lishi kerak.

Ta'kidlab o'tganimizdek, musiqa o'qituvchisi oliy ta'lim davrida cholg'uchilik, musiqa cholg'ularida ijro etish, vokal – kuylash, nazariy bilimlarni yaxshi egallashi kerak. Chunki, jonli ijro etilgan kuy va qo'shiq hammadan ko'proq, tez va emotsional ta'sir kuchiga egadir. Jonli ijro etilgan kuy va qo'shiq o'quvchilar e'tiborini tez jalb etadi, yaxshi kayfiyat baxsh etadi. Jamoa bo'lib kuylash vaqtida hohlagan takti (jumlan) qaytarish imkonini beradi. Va nihoyat musiqa asbobida mahorat bilan ijro etgan, qo'shiqni chiroyli ovozda kuylagan o'qituvchi o'z tarbiyalanuvchilariga musiqani har kim o'zi ijro etishi naqadar qiziqarli ekanligini, jozibadorligini amaliyotda ko'rsatib beradi. Musiqa o'qituvchisi faqatgina musiqa cholg'ularini mohirona ijro etish bilan cheklanib qolmay, balki, yaxshi tovush, dirijyorlik mahorati, jamoa bilan ishlash

malakalarini yaxshi egallagan bo'lishi uning faoliyati samaradorligini kafolatlaydi.

O'qituvchi bulardan tashqari darslarni kuzatib borishi uning yutuq va kamchiliklarini maxsus daftarga qayd qilib, shunga yarasha keyingi darslarga tayyorgarlik ko'rishi yaxshi samara beradi. Doimiy kuzatishlar sababli o'qituvchining pedagogik mahorati ham o'sib, rivojlanib boradi. U vaziyatni baholashga, o'quvchilarning kayfiyatini, dars ularda qanday taassurot qoldirganligini, ichki his – tuyg'ularini sezishga o'rganadi. Kuzatish birinchi sinfdan boshlanib, yettinchi sinfga qadar “davomiylik” tamoili ostida olib borilishi maqsadga muvofiqdir. Bundan tashqari pedagogik texnologiyani qo'llash, o'zi ijro etib berishidan tashqari har bir darsda suhbat, hikoya, tushuntirish, uqtirish, munozara kabi uslublar yordamida asarlar mazmuni, mualliflari, yaratilgan davri, janri, xarakteri, shakli, tempi, lad – tonalligi, ijrochilik xususiyatlari haqida zarur tushunchalarni berib borishi lozim.

Musiq madaniyati darsida o'qituvchining so'z mahorati yuksak darajada bo'lishi lozim. O'qituvchining o'rganilayotgan asar haqidagi kirish so'zi va dars mavzusini tushuntirib berishi, o'quvchilarni ajoyib va sehrli musiqa olamiga olib kiradi. Bunday xislatlar, ko'nikmalar, malakalarning asosiy negizi oliy ta'lim davridagi ta'limjarayonida yaratilmog'i va o'qituvchilik faoliyatida uzluksiz ravishda takomillashtirilib, boyitilib, rivojlantirilib borilishi pedagog – murabbiylar oldiga, kasbiy faoliyatiga qo'yilayotgan ijtimoiy buyurtmaning asosiy mazmunini belgilaydi.

2.2. Musiqa darslarida ilg`or pedagogik texnologiyalarni tadbqiq etish texnologiyasi.

Umumta`lim maktablari “musiqa madaniyati” darslarida musiqa ta`limi va tarbiyasini amalga oshira borar ekanmiz, o`qituvchi oldida o`quvchilarni eng avvalo musiqa san`atiga, o`zi o`tayotgan darsga, berilayotgan bilimlar, o`rganilayotgan kuy – qo`shiqlarga qiziqish va havas uyg`otish vazifasi turmog`i lozim. Maktabda, ayniqsa boshlang`ich sinflarda qo`shiq aytish, musiqa tinglashga bo`lgan qiziqish va moyillik, asta – sekin yoshlarning musiqa san`atiga bo`lgan ijobiy munosabatlari, qolaversa ehtiyojlarining rivojlanib, shakllanib borishida muhim o`rin tutadi.

Musiqa darsi o`z tabiatiga ko`ra ham san`at, ham tarbiya darsidir. Uni rang –barang, sermazmun va qiziqarli tashkil qilish har bir o`qituvchidan katta pedagogik va professional mahorat talab qiladai . “Bolalarni san`atga o`rgatish nihoyatda murakkab” – deb ta`kidlaydi taniqli kompozitor – pedagog D.B.Kabalevskiy, - hamma murakkabligi shundaki, ularni emotsional tarzda qiziqitirmay turib chinakam san`atga o`rgatish mutlaqo mumkin emas.

Bu o`rinda musiqiy mashg`ulotlar jarayonida o`quvchilarning ijodiy faolligini ta`minlash alohida ahamiyatga molik. Musiqani tushunish, uning hissiy - emotsional ta`siridan bahramand bo`lish bilim, malaka va ko`nikmalar qatori emotsional his – tuyg`ularning ishtirokiga ham bog`liq. Asarni ijro va idrok etishda his – tuyg`ular qanchalik faol va chuqur bo`lsa, ularni tushunish va o`zlashtirish, ta`sirlanish shuncha ongli va samarali bo`ladi. Bu holatlar esa o`z o`rnida ijodiy faollik natijasida sodir bo`ladigan jarayondir. Zero, zerikarli va bir xillik sinfda jonli hissiyot holatini vujudga keltira olmaydi. O`quvchilarni darsga qiziqtirish birinchi navbatda tinglash va ijro etish uchun tanlanadigan repertuar va uslublarga (an`anaviy yoki interfaol metodlar) bog`liq. Boshlang`ich sinflar uchun tanlanadigan asarlar repertuarining asosiy mezoni ularning yoshi, qiziqishi, bilim va malakalari, ko`nikmalari darajasiga bog`liq.

Shunga muvofiq qo`llaniladigan metodlar ham ko`proq o`yin xarakterida bo`lishi maqsadga muvofiq bo`ladi. Sho`x, o`yinbop, raqs ishtirokida turli

musobaqa tarzida uyushtiriladigan va tematikasi bolalar dunyosiga mos ertak qahramonlari, hayvonlar, parrandalar, o`simliklar, tabiat manzaralari, qushlar obrazlari bilan bog`liq asarlar o`quvchilarda darsga nisbatan qiziqish va havas uyg`ota oladi, estetik hissiyotlarini, musiqiy qobilyatlarini o`stirib boradi. Bu o`rinda zamonaviy qo`shiqlar qatori xalq qo`shiqlaridan, qardosh xalqlar va kompozitorlari asarlaridan foydalanish darslarni yanada sermazmun va faol bo`lishini ta`minlaydi, yoshlarda xalq musiqa merosiga bo`lgan mehr va muhabbat tuyg`ularini shakllanishiga kuchli ta`sir etadi. Har bir darsda ijodiy faollik yuzaga keladi.

Zamonaviy musiqa madaniyati darslarini badiiy – pedagogik asar deb hisoblash mumkin. Chunki uni o`qituvchi o`z individual ijodidan va tajribasidan kelib chiqqan holda yaratadi. Darsning kompozitsiyasi va dramaturgiyasi, uning badiiy – pedagogik g`oyasi, maqsad va vazifalari, shakllari, metodik usullari va texnologiyalari ham o`quvchilarda musiqaga, o`quv materiallariga qiziqishni o`stirish, ularga musiqa san`ati va madaniyatining ma`naviy mazmunini singdirish, zamonaviy musiqali ijodiy faoliyatni anglashi – bularning hammasi o`qituvchining ijodiy yondashuvchanligining mahsuli hisoblanadi.

O`qituvchi musiqa darsini (bir soatlik) rejasini tuzganda maqsad, vazifasini, mavzusini, turini va o`qitish shakllarini, musiqiy faoliyatlarni va ular mazmunida o`quvchilarga beriladigan bilimlar, qo`llaniladigan uslublar, texnologiyalarni aniqlab, so`ng darsning senariysini yaratadi. Darsning har bir faoliyati: musiqa tinglash, jamoa bo`lib kuylash, musiqa savodi, ritmik harakatlar, musiqa cholg`u asboblarida jo`r bo`lish, o`yinlar – bir – biri bilan bog`lanib , uzviylashtirilgan bo`lishi kerak. Bunda o`quvchilarni darsga faol qatnashtirish uchun turli xil texnologiyalar, vositalar, metod va usullar qo`llaniladi.

Ma`lumki, har qanday pedagogik texnologiya ta`limning yangi loyihasini rivojlantiruvchi ta`lim tamoillariga asoslangan bo`lib, o`quvchi shaxsiga yo`naltirilgan bo`lishi kerak. O`qituvchi va o`quvchi, o`quvchilar va o`qituvchining hamkorligi o`zaro muloqot, bir – biriga ko`rsatadigan ta`siri

zamonaviy talablar asosida tashkil topishi lozim. Bunday jarayonda o`quvchilar bilan hamkorlikda ishlash malakalari shakllanadi. O`quvchilarning faol, samarali faoliyat ko`rsatishiga yo`naltirilgan ta`lim jarayonining metodik ishlanmasidan farqli ravishda, ta`limning pedagogik texnologiyasi ta`lim oluvchilarga qaratiladi, shuningdek, ularning shaxsiy va o`qituvchi bilan birgalikdagi faoliyatini hisobga olgan holda o`quv materialini o`zlashtirishiga sharoit yaratadi.

Pedagogik texnologiya turini tanlash dars va mashg`ulotlarda qaysi darajadagi bilim va ko`nikmalarni o`zlashtirish nazarda tutilganligiga bog`liqdir. O`qitish jarayonida qo`llaniladigan texnologiyalar juda ko`p. Bu texnologiyalar o`quvchilarning yosh xususiyatiga, ko`pchilikni o`qitishga yoki individual mashg`ulotlarga mo`ljallangan bo`ladi.

Hozirgai kunda yangi pedagogik texnologiyalarni o`quv jarayoniga tadbiiq etishga bo`lgan qiziqish kundan – kunga kuchayib bormoqda. Chunki, pedagogik texnologiya va interfaol metodlar o`quvchi yoshlarni puxta bilim va malakalarni egallashlarini yengillashtiradi, qulaylik tug`diradi. Shu o`rinda biz o`zimizning amaliy tajribamizda qo`llagan ayrim texnologiyalarga qisqacha to`xtalib o`tamiz.

Raqs + tabassum.

Bu texnologiyalardan ko`proq boshlang`ich sinflarda foydalanish mumkin. Boshlang`ich sinf darsliklaridan o`rin olgan “Qari navo”, “Usmoniya”, “Andijon polkasi”, “Dilxiroj” raqs kuylarida qo`llash yaxshi natija beradi. Bunda o`yin – raqsga jalb etilgan o`quvchilar hohlagan holatda turadilar. O`qituvchi yoqimli musiqa ostida barcha o`quvchilarni raqsga taklif etadi.

1. O`quvchilar erkin raqsga tushadilar. Musiqa tugagach yonida, to`g`risida to`xtagan do`stiga tabassum bilan olqishlovchi so`z aytishi kerak.
2. Hammaga tanqid qiluvchi yoki ko`ngilni qoldiruvchi so`z aytish qat`iy man qilinadi. O`quvchilarga quyidagicha murojaat qilish mumkin: “Sizni raqs tushishingizdan xursand bo`ldim”,

“Siz chiroyli raqs tushar ekansiz”, “Sizning raqs usullaringiz menga juda yoqdi” va h.k.

Muhokama uchun savollar:

1. Musiqa sizda qanday taassurot uyg`otdi?
2. Atrofdagilarning tabassumini ko`rganda nimani his qildingiz?
3. Kimni olqishi sizga ko`proq ma`qul bo`ldi? Nima uchun?
4. Keyingi safar kim bilan raqsga tushishni hohlaysiz?

2. Pantomima uslubi.

O`quvchilar doira shaklida o`tiradi. O`qituvchi o`quvchilarga cholg`u asboblarning rasmini tarqatadi. O`quvchilarning vazifasi ushbu cholg`u asboblari qanday holatda kuyni ijro etilishini harakatlari bilan ko`rsatishdan iborat. Qolganlar esa kuzatib, qaysi cholg`u asbobi ko`rsatilayotganligini topishi kerak. Masalan, rasmda doira surati aks etgan bo`lsa, stulda o`tirgan holda qo`l harakati bilan ko`rsatib beradi, karnay, surnay, g`ijjak, rubob, dutor, fortepiano, cholg`u asboblari mos qo`l harakatlari bilan tasvirlanadi. 5 – 6 ta o`quvchining chiqishidan so`ng muhokama qilinadi.

3. Marhamat davom ettir. (takrorlash darslari uchun)


Sinf ikki guruhga bo`linadi. Oldingi darslarda o`rgatilgan qo`shiqlardan birini 1 – guruh boshlab beradi, birinchi kuplet kuylanadi, 2 – guruh davom ettiradi. Qaysi guruh to`g`ri, aniq davom ettirsa u golib bo`ladi va 2 – qo`shiqni tanlash huquqiga ega bo`ladi. 3 ta qo`shiqdan keyin mutloq g`olib aniqlanadi va baholanadi.

4. “Bilag`onlar ko`chasi” uslubi.

Bu texnologiyada o`quvchilar guruhlariga bo`linadi (4-5 ta), har bir guruhga bastakorlarning portretlari ko`rsatiladi. O`quvchilar bastakorlarning hayoti, faoliyati, asralari nomlarini aytishadi, asarlaridan ayrim parchalarni kuylab berishadi.

5. “Jumboq ko`chasi” uslubi.

Bu uslubda guruhlarga bo`lingan o`quvchilar e`tiboriga rebus yechish vazifasi yuklatiladi.



Tarozi uslubi.

Mazkur usul o'tgan mavzularni ko'proq dalillar keltirgan holda qisqa va lo'nda ifodalab, boshqa guruh ishtirokchilarini javoblari bilan solishtiriladi.

Aniq, to'g'ri javob bergan guruh g'olib hisoblanadi.

O'quvchilarni fikrlashga, mushohada qilishga, o'z bilimi, topqirligini va zukkoligini namoyish qilishga yo'naltirilgan pedagogik texnologiyalarni qo'llash dars jarayonini demokratlashtirish bilan birga o'qituvchi va o'quvchi hamkorligini, o'quvchilarni ijodkorligini rivojlantiradi. Oqituvchi va o'quvchilarning doimiy ishchan muloqotda va munosabatda bo'lishlari dars samaradorligini oshirish, o'quvchilarning bilim doirasini kengaytirishda muhim ahamiyatga ega.

Interfaol metodlar – o'qituvchi va o'quvchilarning o'zaro hamkorligi asosida darsda ijodiy muhit yaratish, dars samaradorligini oshirish, o'quvchilarda mustaqil fikrlash mulohaza yuritish, o'z munosabatini bildirish ko'nikmalarini shakllantirish omilidir. Bunday metodlarda o'quvchi o'zi faol ishtirok etgan holda yakka, juftlikda, guruhlarda, jamoa bo'lib muammo va savollarga javob topishga harakat qiladi, fikrlaydi, baho beradi, yozadi, so'zlaydi, dalil hamda asoslar keltirish bilan qo'yilgan masalani yoritib berishga harakat qiladi. Bu esa o'quvchilarning xotirasida mustahkam o'rnashadi. Yangi mavzu (axborotni) ni o'zlashtirishda tanqidiy, tahliliy yondashishga o'rgatadi. O'qituvchi faqat yo'l – yo'riq ko'rsatuvchi, tashkil qiluvchi, kuzatuvchi, baholovchi vazifalarini bajaradi.

Interfaol metodlarni juda ko'p turlari mavjud. Biz ulardan o'z faoliyatimizda foydalangan ayrimlari haqida to'xtalib o'tamiz:

1. “Aqliy hujum” metodi.

“Aqliy hujum” – sinfdagi har bir o'quvchiga o'qituvchi qo'ygan savol yoki muammo yuzasidan o'z fikrini bayon etishga imkon beruvchi o'quv uslubidir. Uslub mohiyati o'qituvchi tomonidan belgilangan muammo yoki savol yuzasidan ehtimol tutiladigan hamma fikrlar variantlarini bir yerga

jamlashistisno tariqasida ta'lim oluvchilarning barcha fikrlarini, shu jumladan aytarli to'g'ri bo'lmaganlarini ham inobatga olishdan iborat.

Bunda yaxshi ishtirok etish uchun ana shu fikrlarning barchasini doskaga yoki maxsus yozuv qog'oziga yozib borish kerak. Bu narsa bayon etilgan fikrlarning keyingi tahlilida o'quvchilarni qo'yilgan savol yoki muammoni to'g'ri tushunishiga imkoniyat beradi.

“Aqliy hujum”ni o'tazish uslublari.

1. O'qituvchi sinfga savol, topshiriq yoki muammo tashlaydi va o'quvchilarga o'z fikrlarini bildirishni taklif qiladi.
2. Istisno tariqasida barcha fikrlar (qancha ko'p bo'lsa shuncha yaxshi) doskada yoki filipchartga yozib boriladi.
3. Barcha fikrlar yozib olingandan keyin o'qituvchi o'quvchilar bilan barcha g'oyalarni shakllantiradi, aytilgan fikrlarga tuzatishlar kiritiladi. Keyinchalik undan foydalanish maqsadida eng muhimlari ajratib ko'rsatiladi.

“Aqliy hujum”ni o'tkazish qoidalari.

1. “Aqliy hujum” o'tkazish uchun belgilangan vaqt reglamentiga rioya etish;
2. Belgilangan vaqt doirasida barcha hohlovchilarga o'z fikrini bayon etish imkoniyatini berish;
3. O'quvchilar tomonidan aytilgan fikrlar tanqid va muhokama qilinmasligi, baholanmasligi lozim;
4. Zarurat bo'lgan holatda bayon etilgan fikrga tuzatishlar kiritish kerak. Lekin bu g'oya yoki fikrni aniq va qisqacha ifodalash maqsadida bo'lishi;

2. Kichik guruhlarda ishlash.

1. Topshiriq, savolasosida muammo tanlab olinadi. Topshiriqda bahsli jihatlar bo'lishi maqsadga muvofiqdir.

2. Kichik guruhlar shakllantiriladi. Kichik guruhdagi o`quvchilarning soni 3 – 5 tadan oshmasligi kerak, ammo topshiriq, sinf xususiyatlariga bog`liq tarzda guruh soni o`zgarishi mumkin.

Kichik guruhlarda ishlayotganda guruh ishtirokchilari o`rtasida vazifalarni taqsimlagan ma`qul. Masalan, bir o`quvchi munozarani yuritadi, ikkinchisi qabul qiluvchi qarorni yozib boradi, uchinchisi ajratilgan vaqtni nazorat qiladi. To`rtinchisi esa guruh qarorini taqdim etadi va h. k. Odatda ikki asosiy usuldan foydalangan holda sinf guruhlariga ajratiladi. Birinchisida o`quvchilar hohishiga ko`ra, ikkinchisida esa hisoblash uslubi bilan ajratiladi. (1 – 3, 2 - 4)

3. O`qituvchi vaqt hajmini ko`rsatgan holda guruhlariga yo`l – yo`riq beradi.

4. Guruhda ishlash yakunlanganidan keyin qaror taqdimoti bo`lib o`tadi. Uni spiker taqdim etishi kerak. Vaqt imkoniyati bo`lsa guruhlar bir – biriga savollar berishi mumkin.

5. Taqdimot natijalari yuzasidan muhokama va baholash o`tkaziladi. Bunda quyidagicha savollar berish mumkin:

- Kichik guruhlarda ishlashda qanday natijalarga erishildi?
- Qaysi muammo tanlandi? U yechim topdimi? va ho kazoo.

Kichik guruhlarda ishlashni o`tkazish qoidalari.

1. Kichik guruhlarda ishlash uchun belgilangan vaqt reglamentiga aniq rioya qilish;
2. Guruhlariga yordam berayotganda o`qituvchi tazyiq o`tkazmasligi;
3. O`quvchilar aytgan fikrlar boshqacha nuqtai nazarda bo`lgan ta`lim oluvchilar tomonidan nazarda tutilgan reglament doirasida asoslangan tanqidga yoki muhokamaga tortilishi mumkin.
4. Zarurat taqozo etganda, bayon etilgan fikrga tuzatishlar kiritish, aniq va qisqa ifodalashga imkon beradi.

3. Tarmoqlar (Klaster) metodi.

Fikrlarning tarmoqlanishi – bu pedagogik strategiya boʻlib, u oʻquvchilarni biror bir mavzuni oʻrganishlariga yordam berib, mavzu haqida aniq fikr, tushunchani erkin va ochiq ravishda ketma – ketlik bilan tarmoqlashga oʻrgatadi. Bu biron bir mavzuni chuqur oʻrganish, oʻquvchilarning fikrlash faoliyatini jadallashtirish hamda kengaytirish uchun yordam beradi. Mavzu boʻyicha tasavvurlarini chizma shaklida ifodalashga undaydi.



Shu o`rinda umumta`lim maktablarida o`z tadqiqotlarimizning amaliy ish tajribalari jarayonida pedagogik texnologiyalar qo`llanib o`tgan darslarimizdan birining ishlanmasi (texnologik loyihasi)ni kiritib o`tishni lozim topdik:

Mavzu: O`zbek xalq cholg`ulari. (4 – sinf uchun)

Dars maqsadi: 1. Ta`limiy: O`quvchilarga o`zbek xalq cholg`u asboblari haqida tushuncha va eng muhim ma`lumotlar berish;

2. Tarbiyaviy: O`quvchilarga o`zbek xalq cholg`u asboblariga to`g`ri munosabatni shakllantirish;

3. Rivojlantiruvchi: O`quvchilarni o`zbek xalq cholg`u asboblari haqida mustaqil fikrlash va cholg`u asboblarini bir – biridan farqli xususiyatlarini anglashlari.

Dars jihozlari: Doska, ktob, daftar, rasm, kartochkalar, bo`r, ko`rgazmali qurollar, texnik vositalar, cholg`u asboblari.

Darsning borishi:

1. Tashkiliy qism:

- salomlashish;

- Davomat. Navbatchi orqali tekshiriladi.

- O`quvchilarni darsga tayyorlash; (ovoz sozlash, do major gammasi, mashqlar).

- Berilgan vazifaslarni so`rash. – o`tilgan dars bo`yicha topshiriqlar bajarilishini nazorat qilish, savol – javob o`tkazish, so`rash, baholash;

2. Asosiy qism:

Yangi dars bayoni. Mavzu: O`zbek xalq cholg`ulari.

O`zbek xalq cholg`u asboblari juda qadimiy, boy tarixga ega. Bu cholg`ular o`z tuzilishi, ijrochilik xususiyatlari, uslublariga ko`ra asosan uch guruhga bo`linadi:

1. Zarbli cholg`ular.

2. Damli (puflab chalinadigan) cholg`ular.

3. Torli cholg`ular.

Zarbli cholg`ular guruhiga doira, nog`ora, sofoil, qayroq, qoshiq vaho kazolar kiradi.

Damli (puflab chalinadigan) cholg`ular guruhiga nay, surnay, karnay, qo`shnaylar kiradi.

Torli cholg`ular guruhiga sato, tanbur, dutor, do`mbira, qashqar rubobi, afg`on rubob, ud, chang, qonun va ho kazolar kiradi.

Torli cholg`ularda tovush hosil qilish vositalari turlicha. Jumladan, dutor va do`mbira chertib chalinadi. Tanbur, qonun sozlari ko`rsatkich barmoqqa kiyiladigan maxsus moslama – “noxun” (mis, temirdan yasaladi) vositasida ijro qilinadi. Qashqar rubobi, afg`on rubobi, ud kabi cholg`ular mizrob (mediator) vositasida chalinadi. Torli cholg`ularning maxsus kamon vositasida ham chalish mumkin, jumladan g`ijjak, qobuz, sato kabi cholg`ular.

Qo`shiq kuylash:

P. Mo`min she`ri, F. Alimov musiqasi. O`lkamizni o`rganaylik. (1 - bandi)

O`lkamizni o`rganaylik,

O`lkamizdan o`rgilaylik.

Onadayin yurtimiz ul,

Obro`yimiz, burdimiz ul.

Naqorat:

O`lkamizni o`rganaylik,

O`lkamizdan o`rgilaylik.

O`lkamizni o`rganaylik,

O`lkamizdan o`rgilaylik.

Qo`shiq matni xor bo`lib o`qiladi. O`qituvchi tomonidan qo`shiq bir, ikki marotaba ijro etiladi, so`ngra o`quvchilar bilan o`rganishga kirishiladi.

Musiqqa tinglash.

Zamonaviy texnik vosita yordamida o`zbek xalq kuyi “Ajam” tinglanadi. Asar tinglangach u haqida qisqacha suhbat o`tkaziladi.

Musiqqa savodi: 6/8 o`lchovi.

Bu o`lchovning yuqoridagi “6” raqami bir takt ichida 6 ta hissa borligini, quyidagi 8 raqami hissalarining har biri sakkiztalik cho`zimga teng ekanligini bildiradi.

Olti hissali o`lchovga dirijyorlik qilib, har bir “siltov”da nechta hissa kelishi ko`rsatiladi. Olti hissali o`lchovga dirijyorlik qilganda o`ng qo`l harakati quyidagicha bo`ladi:

Ijro sur`ati tez bo`lganda oddiy ikki hissali o`lchovga dirijyorlik qilgan dek harakat bajariladi:

Bunda har bir qo`l harakati (siltov) ga uchtadan hissa to`g`ri keladi.
Mustahkamlash:

Aqliy hujum. Darsning qiziqarli bo'lishini ta'minlash maqsadida noan'anaviy ta'lim metodlarining turli xil usullaridan foydalanish mumkin.


1. Nima uchun xalq cholg`u asboblari deyiladi?
2. Xalq cholg`u asboblariga qaysi cholg`ular kiradi?
3. O'lchov nima? U qanday vazifani bajaradi?

Savol – javob:

1. Ajam kuyi xarakteri qanaqa?
2. Ajam kuyi qaysi cholg`ular jo`rligida ijro qilingan?
3. Ajam so`zining lug`aviy ma`nosi nima?
4. Doira, nog`ora qaysi cholg`ular guruhiga kiradi?
5. Tanbur, dutor va ruboblar qaysi cholg`u asboblari guruhiga mansub?
6. Nay, surnay va qo`shnay qaysi cholg`ular guruhiga kiradi?

Klaster usuli:

Bu usulni qo'llaganda "O'zbek xalq cholg`ulari" "kalit" so`z hisoblanadi va doskaga yoziladi. Klaster usulida o'zbek xalq cholg`u asboblari to`g`risidagi ma'lumotlar keltiriladi va guruhlar bo'yicha tartibga solib boriladi. Dars oxirida o'tilgan mavzu yuzasidan uyga vazifa topshiriladi. Bu usul o`quvchilarni o`z nuqtai nazarini asoslash, boshqalarning g`oyalariga kirib bora olish, guruh bo`lib ishlash malakasini oshiradi.



2 – sinf uchinchi chorak o`quv dasturi bo`yicha “Cholg`u ansambli” darsining texnologik xaritasi. Chorak mavzusi: “Ansambl turlari, kuy nima? Kuyda nima ifodalanadi?”

Darsning maqsadi:

- 🌸 o`quvchilarni mustaqil va ijodiy fikrlashga o`rgatish;
- 🌸 cholg`u ansambllari haqida tushuncha berish;
- 🌸 o`quvchilarda musiqa tinglash va jamoa bo`lib kuylash malakalarini mustahkamlash.

Darsning metodi: aralash

Darsning jihozi:

- ♪ 2-sinf musiqa darsligi;
- ♪ Fortepiano va cholg`u asboblari;
- ♪ Musiqa savodiga doir tasviriy-illyustrativ ko`rgazmalar;
- ♪ Qo`shiqning nota yozuvi plakati;
- ♪ Texnik vositalar.


Darsning borishi:

O`quvchilar musiqa sadolari ostida sinfga kiradilar.

Tashkiliy qism: navbatchi yordamida davomad nazorat qilinadi mavzu e`lon qilinadi.

Yangi mavzu: jamoa bo`lib kuylash faoliyatida o`rganish rejalashtirilgan “Archa qo`shig`i” ga oid qish fasli va yangi yil haqida suhbat o`tkaziladi.

Bunda, klaster metodini qo'llash mumkin:



O'qituvchi yordamida qish fasli haqidagi quyidagi so'zlar izohlanadi: qor, yangi yil, bayram, qo'shiqlar, o'yinlar, qorqiz, qorbobo, sovg'a va hokazolar.

Ovoz sozlash mashqlari o'tkaziladi.

Jamoa bo'lib kuylash: o'qituvchi ijrosida I. Akbarovning "Archa bayrami" qo'shig'ining kirish qismini tinglab, qo'shiq nomi, kompozitori o'quvchilar tomonidan aniqlanadi. So'ng o'quvchilar o'qituvchi yordamida qo'shiqni eshitish takrorlash uslubida o'rganadilar (1-bandini).

O`qituvchi ijrosida D. Zokirovning “Yangi yilim – yaxshi yilim” qo`shig`I ifodali ijro etilib beriladi. O`quvchilar bilan asar mazmuni, xarakteri, tonalligi, o`lchovi, tempi nazariy tahlil qilinadi.

Asosiy mavzu bo`yicha cholg`u ansambli uning tarkibiga kiruvchi cholg`u asboblari to`g`risida o`quvchilarning bilimlari takrorlanib, o`qituvchi cholg`u ansambli turli cholg`ulardan tuzilishi, qaysi cholg`u sozlaridan iborat bo`lishi mumkinligi va rubobchilar, doirachilar, dutorchilar, changchilar, ansambllari ham bo`lishi mumkinligi to`g`risida tushuncha beradi.

Musiqqa tinglash: Cholg`u ansambli ijrosida “Chertmak” xalq kuyi tinglanadi. (Audio yoki CD disk yozuvida) O`quvchilar kuyini tinglab uning nomi, xarakteri, tempi, nima ifodalangani, ifoda vositalari va qaysi cholg`ularda ijro etilganligi haqida tahlil qiladilar.

Ijodiy faoliyat: O`quvchilardan cholg`u ansambli tuziladi va “Chertmak” xalq kuyiga qo`l harakati bilan turli cholg`ularda chalishni ko`rsatib, musiqaga jo`r bo`ladilar.

Musiqqa savodi: Usul tashlab notalar sanash, “bak - bum” so`zi bo`g`inlarini ovozda aytib, satol chetiga barmoqlar bilan usul tashlab musiqaga jo`r bo`lish.

O`yin o`tkazish: “Asar” so`ziga yoki boshqa o`qituvchi o`zi tanlab olgan so`zga krassvord tuzish.

Masalan:

n	o	t	a				
	m	u	s	i	q	a	
		t	a	k	t		
d	o	i	r	a			

		A					
		S					
		A					
		R					

Soʻz doskaga yoziladi, oʻquvchilar bittadan chiqib, oʻqituvchi yordamida krossvordga toʻgʻri keladigan soʻzlarni yozadilar. Soʻzni toʻgʻri topish uchun oʻqituvchi savollar beradi. Toʻgʻri topganlar rangli kartochkalar bilan ragʻbatlantiriladi.

Dars yakuni: Oʻqituvchi dars davomida oʻtilganlarni mustahkamlaydi.

Uyga vazifa: Oʻtilgan mavzularni oʻrganib kelish. Ansambllar ijrosida radioeshittirish va televidenie koʻrsatuvlarida kuy va qoʻshiqlarni tinglab ifodalash. Darslikda berilgan rebusni tayyorlab kelish.

Bahs – munozara darslari – musiqiy asarlarni chuqur tahlil qilish musiqa savodiga oid bilimlar musiqa tarixi, musiqiy asarlar tahlili, musiqa shakli kabi musiqiy – nazariy bilimlarni mustahkamlashga qaratilgan boʻladi. Bu texnologiya asosan chorak yoki yarim yil davomida olingan musiqiy – nazariy bilimlarga asoslangan boʻladi. Bahs – munozara darslari oʻquvchilarning avval egallagan bilimlari negizida tashkil etiladi. Oʻquvchilar uchun notanish yoki aniq

bo`lmagan masalaga oydinlik kiritish, munozarali qarashlarda bir to`xtamga kelish va shu asosda o`quvchilarni bilimlarni mustaqil egallashlariga erishish, musiqiy tafakkur va musiqiy idroklarini shakllantirish maqsadida tashkil etiladi.

Bahs – munozara darslari boshqa darslardan o`ziga xos jihatlari bilan farq qiladi. Ya`ni budarsda biror bir masala yoki mavzu yuzasidan tortishuv bo`ladi. Masalan: “Kuyda nima ifodalanadi?”, “Musiqaning ifoda vositalariga nimalar kiradi?”, “Ansambl nima?” va hokazo. O`qituvchi va o`quvchilar o`z fikr – mulohazalari bilan o`rtoqlashadilar. Bu darslarda bahs kuchli bo`ladi va har bir fikr o`z isboti bilan tasdiqlanadi, eng ma`qul variant qabul qilinadi.

Bahs – munozara darslari o`quvchilardan o`ziga xos tayyorgarlikni talab qiladi. Bu darslar o`quvchilarni hozirjavoblikka, mustaqil fikrlashga, masalalarga ijodiy yondashishga, nutqlarining teranlashishiga ijobiy ta`sir etadi. Bitta musiqiy asardan sinfdagi o`quvchilar turli xil taassurotlar oladilar. Shuning uchun o`z fikr mulohazalari bilan o`rtoqlashishlari ularning tafakkurlari va tasavvurlarini boyitishga yordam beradi.

Bahs – munozara uyushtirish pedagogik jihatdan ham katta ahamiyatga ega. U o`quvchilarning estetik tuyg`ularini, didlarini tarbiyalashda ham muhim vositalardan hisoblanadi. Munozara mavzusini o`quv dasturi mazmuni va talablariga, shuningdek, o`quvchilarning bilim va malakalariga mosligi nuqtai – nazaridan o`qituvchi tanlaydi. Bunda o`quvchilarning hohish – istaklari va qiziqishlari ham hisobga olinmog`i lozim.

O`qituvchi munozarali savollarni tuzadi va o`quvchilarni bahsga chorlaydi. O`qituvchi o`quvchilarni faolligini kuchaytirib, javoblarni izchil va

aniq bo`lishini nazorat qilib turadi. Bunday darslar o`qituvchi va o`quvchilarni bir – biriga yaqinlashtiradi, do`stona va ijodiy muhitni vujudga keltiradi. Bunday darslarni uyushtirish o`qituvchi va o`quvchilardan dars jarayonida bir qator qoidalarga amal qilishlarini taqozo etadi.

O`quvchilardan:

- o`z fikrlarini tushunarli qilib, shoshilmasdan ifodalash;
- munozara paytida o`rtoqlariga va ularning fikrlariga hurmatda bo`lish;
- odob bilan, qo`l ko`tarib, navbat bilan javob berish;
- boshqalarni diqqat bilan eshitish;
- mavzudan chetga chiqmaslik;
- fikri noto`g`ri bo`lsa ham munozarada ishtirok etish;
- o`z fikrini dalillar bilan isbotlash.


O`qituvchidan:


- O`quvchilarni munozaraga tortish;
- O`quvchilarni muammoga qiziqтира olish;
- O`quvchilar xatolarini to`g`rilab, tushuntirib turish;
- O`quvchilar fikrlarini mavzu doirasida bir tizimga solib ushlab turish;
- Faol ishtirok etganlarni rag`batlantirish.


“O`zingiz toping” usuli:

Musiqqa savodi faoliyatida qo`llanishi mumkin. Plakat yoki doskaga yozilgan notalar nomi o`quvchidan so`raladi.

1. "Fa" notasini toping.

a) 

b) 


c) 

O`quvchilarga savol tashlanadi. 4 – sinf o`quvchilariga mo`ljallangan quyidagi savollar uncha murakkab bo`lmay u keyinchalik murakkablashtirilib borilishi mumkin.

2 – *savol*: Butun nota ichida nechta yarim nota bor?

- a) 4 ta yarim nota bor.
- b) 2 ta yarim nota bor.
- c) 3 ta yarim nota bor.

3 – *savol*: Eng baland tovushni toping.



4 – *savol*: Qaysi qatordagi tovushqator to`g`ri tartibda yozilgan?

- A) do – re – mi – fa – lya – sol – si.
- B) do – mi – re – fa – sol – lya – si.

C) do – re – mi – fa – sol – lya – si.

D) do – si – lya – sol – fa – mi – re.

5 – savol: Alla qo`shig`i qanday xarakterga ega?

A) sho`xchan. B) og`ir, sokin. C) tez. D) tantanavor.

6 – savol: Tovushqatorida qaysi nota tushirib qoldirilgan?



7 – savol: Mediator (noxun) bilan qanday cholg`u asboblari chalinadi?

A) g`ijjak. B) dutor. C) doira. D) rubob.

8 – savol: Yakkaxon qo`shiqchini kim deb ataymiz?

A) Yozuvchi. B) shoir. C) solist xonanda. D) cholg`uchi.

9 – savol: Musiqani kim yaratadi?

A) shoir. B) rassom. C) bastakor. D) sozanda.

Bu kabi savollar bilan o`quvchilarga murojaat qilinsa sinfda jonlanish seziladi, muhokama – munozara qilish imkoniyati yuzaga keladi. Javob bergan o`quvchining javobini esa to`g`ri yoki noto`g`ri ekanligini o`quvchilarning o`zlari tekshirib baholashlari uni yanada jonli, qiziqarli o`tishini ta`minlaydi.

Darsning musiqa savodi faoliyati samarali bo`lishida o`qituvchi milliy cholg`ular, magnitafon, rasmlardan tashkil topgan ko`rgazmali qurollardan, notalar yozuvi, cho`zimlar, pauzalar, dinamik belgilar, alteratsiya belgilari, temp, dirijyorlik qoidalari aks ettirilgan ko`rgazmalardan foydalanishi, berilayotgan topshiriqlarni o`quvchilar oson bajarishlari va xotirasida mustahkam o`rnashib qolishlariga yordam beradi.

“Chigil yozdi” usuli.

Bu usul (texnologiya) darsning oxirgi qismlarida qo'llansa, 40 – 45 minut bir joyda o'tirib, harakatsiz bo'lgan o'quvchilarni jonlantirib, kayfiyatini ko'taradi. Sinf o'quvchilari qatorlarga bo'linib musobaqa uyushtiradi.

- Har bir qatordan chiqqan o'quvchilar chalingan kuyga mos raqs tushib berishlari kerak. Kuy repertuari shunday tuzilgan bo'lishi kerakki, ular usul sur'ati jihatidan farq qiluvchi, iloji bo'lsa har xil millat musiqalari bo'lishi lozim. Bunda o'quvchilarning topqirligi mustaqil ravishda musiqani ichki hissiyot bilan qabul qilishlari, qolaversa boshqa xalqlar musiqasi bilan tanisha borishlari mumkin bo'ladi. Eng asosiysi bu usul o'quvchilarda psixologik turg'unlikni o'sishi, kayfiyatini ko'tarib, musiqa darslariga e'tiborini kuchaytiradi.

III BOB. Ilg`or pedagogik texnologiyalar vositasida ta`lim samaradorligini ta`minlash yuzasidan amaliy tajribalar mohiyati.

3.1. Musiqa ta`limida ilg`or texnologiyalarni qo`llash tizimi va uning samaradorligi.

Biz mazkur ilmiy tadqiqotimizni olib borish jarayonida ta`limni texnologik yondashuvlar asosida tashkil etishga oid ilmiy – pedagogik adabiyotlarni o`rganish davomida va ushbu muammo yuzasidan amaliy tajriba sinov ishlarini olib boorish paytida asosiy e`tibor tadqiq etilayotgan muammoning amaliy jihatlariga qaratilishi lozimligini aniqladik va biz ham shunday yo`l tutishimiz to`g`ri bo`lishiga ishonch hosil qildik.

Ta`lim berish davridagi amaliy pedagogik faoliyat ta`lim beruvchi (O`qituvchi - pedagog) hamda ta`lim oluvchi (o`quvchi) o`rtasida ro`y beruvchi va o`zida didaktik xususiyatlarni namoyon etuvchi amaliy faoliyat mazmunini yorituvchi jarayondir. Nazariy – pedagogik g`oyalar, har qanday ta`limga tadbiiq etilayotgan ish shakl, usul, vositalar, bevosita amaliyotda ta`lim va tarbiyaviy jarayon mohiyatini o`rganish, tahlil etish, umumlashtirish asosida qaror topadi. Shuning uchun ham pedagogik va ilmiy izlanish jarayonida tajriba – sinov ishlarini tashkil etish shu jarayonning o`zagi sifatida namoyon bo`ladi.

Tadqiqiy izlanish natijalarini aniqlash maqsadida tashkil etiladigan tajriba – sinov ishlari ma`lum va aniq maqsadga yo`naltirilgan reja va dasturga asoslanishi ishlarni tizimli va aniq bo`lishini ta`minlaydi. Shunga ko`ra biz ham musiqa darslariga ilg`or pedagogik texnologiyalarni tadbiiq etishning ta`lim sifati va samaradorligini oshirishini isbotlash bo`yicha tajriba-sinov ishlarini olib borishda ta`kidlab o`tilgan fikrlarga tayangan holda eng avvalo tajriba-sinov ishlarini olib borish bo`yicha o`z dasturimizni ishlab chiqdik. Unda musiqa darslarini olib borish jarayonida ta`lim texnologiyalarini qo`llash o`quvchilarni musiqiy-nazariy bilish, qiziqish qobilyatlarini, musiqa madaniyatini shakllanishiga samarali ta`sirini kuzatish imkonini beruvchi muayyan bosqichlari, ularni o`ziga xos xususiyatlari (har bir bosqichda amalga

oshiriladigan vazifalar), shuningdek ularning obyektiv shart-sharoitlari, statistik tahlilning o'tkazilishi shartlari, baholash mezonlari kabilar e'tiborda tutildi.

Pedagogik faoliyatni texnologik yondashuv asosida tashkil etishning samaradorligi birinchi navbatda o'qituvchining ushbu yo'nalishdagi tayyorgarlik mahoratiga bog'liq. Bu mashg'ulotlarni mavzusi, mazmuni sinf, guruhning imkoniyati, mavjud shart-sharoitlarini aniq va to'g'ri baholagan holda, o'zining pedagogik texnologiyalarni qo'llashdagi imkoniyatlarini tanqidiy baholashiga bog'liqdir.

Shunga ko'ra ta'kidlovchi kuzatish ishlari Jizzax va Samarqand shahridagi umumta'lim maktablarida 2011-2012 yillarda o'tkazildi. Avvalambor umumiy o'rta ta'lim maktablaridagi musiqa ta'limining pedagogik va metodik jihatdan to'g'ri yo'lga qo'yilganligi, o'qituvchining pedagogik texnologiyalarini qo'llash bo'yicha tajribasi, bu faoliyatga munosabatini aniqlashga to'g'ri keldi. Kuzatishlar shuni ko'rsatdiki, aksariyat musiqa o'qituvchilarining musiqa o'qitish metodikasi bo'yicha, shunga muvofiq tarzda pedagogik texnologiyalarni qo'llash bo'yicha bilim, malakaviy tayyorgarlik darajalari ancha past.

Bu ko'rsatkichlarni o'quvchilarning pedagogik texnologiyalar, musiqali o'yinlar, ritmik-raqs harakatlarini darsda qo'llashga munosabatlari bilimi haqidagi so'rovlarimiz natijalari bilan taqqoslaganimizda bu xolatda vaziyat biz kutganchalik emasligi ma'lum bo'ldi. Olingan natijalar tahlilidan ma'lum bo'ldiki musiqa o'qituvchilarini birinchi galda pedagogik faoliyatga texnologik tayyorlash zarur yoki ularni ushbu yo'nalishda malaka oshirishlarini ta'minlash, qisqa kurslarda o'qishlariga imkon yaratish lozim.

Shundan so'ng texnologiyalashtirilgan ta'limni an'anaviy uslubdagi mashg'ulotlarga nisbatan afzallik jihatlarini aniqlash bo'yicha o'zimiz ishlab chiqqan dastur asosida tajriba – sinov ishlarini shakllantiruvchi bosqichidagi vazifalarni amalga oshirishga kirishdik.

Shunga ko`ra Samarqand va Jizzax shahridagi ikkitadan umumta`lim maktabining bir xil (4 - sinflar) sinflaridan ikkitadan (biri tajriba sinfi, biri nazorat sinfi) jami 4 ta sinf tanlab olindi.

Tadqiqot muammosi doirasida tashkil etilgan amaliy tajriba – sinov ishlari jarayonida o`quv mashg`ulotlarini ilg`or pedagogik texnologiyalardan foydalangan holda tashkil etish (tajriba sinflarida), qo`llanilayotgan texnologiyalarni o`quv mashg`ulotlari, mavzulari, mashg`ulot vaqti, sinf o`quvchilarining qiziqish va qobilyatlari, mavjud shart – sharoitlarni hisobga olgan holda uyushtirishga asosiy e`tiborni qaratdik.

O`quv mashg`ulotlarining mazmuni, mohiyati va musiqiy faoliyatlarning o`ziga xoslik xususiyatlaridan kelib chiqqan holda ularga mos texnologiya va pedagogik metodlardan o`z o`rnida foydalanildi. Interfaol metodlardan “Aqliy hujum”, “Klaster” (tarmoqlash), “Blits so`rov”, “Piramida”, “Bumerang”, “Skarabey”, “Bahs - munozara”, “Doira stol atrofida”, “O`yla, izla, top”, “Kuyni top”, “Men dirijyor”, “Quvnoqlar va zukkolar”, “Konsert dars”, “Viktorina darslari”, amaliy metodlardan “Savol - javob”, “suhbat”, “hikoya”, “tushuntirish”, “uqtirish” va ko`rgazmali, texnik vositalar yordamida namoyish qilish, ko`rsatish kabi uslublarga keng o`rin berildi.

Bahs – munozara, savol – javob, erkin muloqotga asoslangan, o`quvchilarni darsda faol ishtirok etishga, erkin fikrlashga, turli xil harakatlarni bajarishga, o`z munosabatini bildirishi, bahslashishga undovchi tadbirlar samarali va qiziqarli kechishi kuzatildi.

Tajriba – sinov ishlari jarayonida darslarni interfaol va o`z o`rnida amaliy (an`anaviy) metodlardan foydalanish darslarni samarali kechishiga olib kelishida obyektiv va subyektiv omillarni e`tiborga olinishi bu boradagi izlanishlarimizning eng muhim jihatlaridan ekanligi ma`lum bo`ldi. Bu:

1. Musiqa darslari jarayonida 4 – sinf (tajriba sinflari) o`quvchilarida musiqiy – nazariy bilim va malakalarni rivojlanganligi, musiqiy madaniyatini shakllantirishning dastur talablari darajasida amalgam

oshirishga qaratilgan faoliyatning asosiy muhim sabablaridan deb e'tirof etilganligi;

2. O'quvchilarning musiqiy bilim, tushunchalari, amaliy ijrochilik malakalarini egallashga bo'lgan qiziqishlarini muayyan darajadagi o'zgarishlarning kuzatilganligi;

3. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida darslarni ilg'or pedagogik texnologiyalarga tayangan holda tashkil etuvchi mutaxassis – pedagoglarning ushbu faoliyatga yetarli darajada tayyor ekanligi;

4. O'quvchilarning ta'lim jarayonidagi faolliklari va ushbu faollikni yuzaga keltiruvchi texnologik yondashuvlar hamda o'quvchilarning o'z ustida ishlash, mustaqil fikrlashiga imkoniyat yaratilganligi;

5. O'qituvchilarning darsda o'rganilishi lozim bo'lgan mavzular mazmuniga tarbiyaviy maqsadlarni singdirib borish mahorati;

6. Musiqa mashg'ulotlari jarayonida o'quvchilarni musiqiy bilim, tushuncha, ko'nikma va malakalarini shakllantirish yuzasidan qo'llaniladigan pedagogik texnologiyalarni tizimli, uzluksiz hamda izchil amalga oshirish.

Tajriba – sinov davrida o'quvchilarni darslarga munosabati, mavzularni o'zlashtirishga intilishlari, o'qituvchiga berayotgan savollari, o'z ustida ishlashlari, berilgan topshiriqlarni mustaqil bajarishlari har bir sinfda bir xil bo'lmasa –da ma'lum darajada yaqin ko'rinishga olib keldi. Shu o'rinda bir sinfdagi sifat o'zgarishlari ayrim muddatda tez rivojlansa, ayrim muddatda sekinroq kechishi ham kuzatildi.

Bunda o'quvchilarni mavzu bo'yicha bilim, tushunchalarni, asarlarni tinglash, tahlil qilish, o'rganish, kuylash, o'z tushuncha va amaliy ijrolarini namoyon eta olishlariga e'tiborni kuchaytirish zarur. Bu ayniqsa, o'quvchilarni maqsadni anglashga, shu maqsadni ta'lim jarayonida nechog'li amalga oshganligini, ya'ni: mavzu doirasidagi bilimlarni nechog'li o'zlashtirilganligini anglash, o'zi va o'zgalar faoliyatiga baho bera olishga o'rgatish muhim ahamiyat kasb etadi.

Musiqqa darslari jarayonida ta'limni texnologik tashkil etish ta'limni zamonaviy talablar asosida, amaliy tarzda, o'qituvchi va oquvchilarning o'zaro muloqoti tarzida tashkil etishini talab etadi. Faqat shundagina dars samaradorligi ta'minlanadi.

Umumiy orta ta'lim maktablaridagi ta'limtizimining mazmuni, hozirgi darajasi ta'limtexnologiyalaridan talab darajasida foydalanish, ya'ni ta'lim – tarbiya jarayonini texnologik asosda tashkil etishga tayyorlashda yetarli imkoniyatlarga ega emas. Umumiy ta'lim maktablaridagi ta'lim – tarbiya jarayonini texnologik asosda tashkil etishda oliy o'quv yurtlari bilan mustahkam va izchil aloqani yo'lga qo'yish zarur.

Buning uchun musiqqa o'qituvchilarini va bo'lg'usi musiqqa o'qituvchilarini maktab faoliyatiga tayyorlashni qanday yo'nalishda amalgam oshirishni belgilash uchun rivojlangan mamlakatlar ta'lim tizimida to'plangan tajribalarga xos umumiy va texnologik yondashuv asosida ishlashning ancha taraqqiy etgan shakllari haqida ma'lumotga ega bo'lishi lozim. Shundagina darslarni pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etishning samarali yo'llarini aniqlash mumkin. Bizning fikrimizcha yangicha texnologik yondashuv asosidagi pedagogik mahoratni egallashda quyidagilarga e'tibor qaratish lozim:

1. Texnologik yondashuv asosida faoliyat ko'rsatayotgan o'qituvchilar kontingentining yangicha va samarali ishlash tajribalarini o'rganish, keng ommalashtirish;
2. Pedagog – o'qituvchilarning texnologik faoliyatga tayyorgarligi va faolligini oshirish va aksincha, unga to'sqinlik qilayotgan sabablarni aniqlash, texnologik yondashuv asosida ishlashning yanada samarador yo'llarini va bizning mahalliy mintaqamizga mos yo'llarini izlash;
3. Tajribali o'qituvchilarning texnologik yondashuv asosida ishlash amaliyotining o'ziga xosligi, tashkiliy – tuzilish xususiyatlari, farqli jihatlarini o'rganish. Buni bilish o'qituvchining texnologik yondashuv faoliyatining motivli asosini “tasvirlab” berishga kasbiga qiziqishning va darslarni qiziqarli va to'g'ri tashkil etishga yordam beradi.

Tadqiqot muammosi doirasidagi tajriba – sinov ishlarimiz uch bosqichda amalga oshirildi:

1. Tayyorgarlik (tashkiliy) bosqich;
2. Ishlab chiqilgan metodikani amalga oshirish (amaliy) bosqichi;
3. Natijalarni umumlashtirish va tahlil qilish (yakunlovchi) bosqich.

Ishlab chiqilgan dastur asosida musiqa darslarini interfaol metodlarni qo'llash orqali tashkil etish va o'quvchilarning musiqiy – nazariy bilimlarini, musiqiy madaniyatini shakllanganlik darajasidagi o'zgarishlarni aniqlashga kirishdik. Buning uchun tajriba boshida o'quvchilarni musiqiy – nazariy bilimlari, musiqani idrok etish unga tavsif berish, baholash, tahlil qilish, ijro etish ko'nikma va malakalarini aniqlab olish lozim topildi. Mazkur ko'nikma malaka va amaliy ijrochilik bo'yicha o'quvchilarning musiqiy madaniyatini belgilovchi mezonlar ishlab chiqildi va dastlab, tanlab olingan tajriba va sinov guruhlarida (sinflarda) test sinovlari, amaliy so'rov va o'quvchilarni ijrochilik (kuylash) malakalarini aniqlovchi o'ziga xos “sinov”lar o'tkazildi.

Tajriba boshidagi natijalar quyidagi jadvalda o'z aksini topgan:

*1 – javal
Tajriba boshida.*

№	Musiqiy – nazariy, amaliy ijrochilik bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalar mazmuni	O'quvchilar soni			
		Tajriba guruhi N1 60		Nazorat guruhi N2 - 60	
		Ijobiy	Salbiy	Ijobiy	salbiy
1.	Musiqani idrok etishi (janr, lad, o'lchov, xarakter)	24	36	26	34
2.	Musiqaga tavsif bera olishi (ijro uslubi, g'oyaviy badiiy mazmuni, shakli)	20	40	22	38
3.	Nazariy tahlil	17	43	16	44
4.	Ijro etish malakasi	23	37	22	38
5.	Vokal – xor malakasi (soz, ansambllik)	21	39	20	40
6.	Nota o'qish malakasi	18	42	19	41
7.	Cholg'u sozlari haqida bilish	30	30	33	27
8.	Xalq va zamonaviy musiqaning o'ziga xos xususiyatlari, uslublari haqida bilim va tushunchalari	29	31	28	32
9.	Xotirasi	37	23	35	25
10.	Musiqqa terminlarini izohlay olishi	25	35	24	36

Natijalar tajriba – sinov boshlanguncha boʻlgan davrda oʻquvchilarning musiqiy – nazariy bilim, koʻnikma, malakalari, demakki musiqa madaniyatining shakllanganlik darajasi ancha past ekanligini koʻrsatdi.

Shundan soʻng tajriba – sinov ishlarimizni olib borish uchun tanlangan tajriba guruhlarida (sinflarda) oʻzimiz uchun maqbul deb topilgan texnologiyalar asosida musiqa mashgʻulotlarini olib borishga kirishdik. Eng avvalo, pedagogik texnologiyalar mohiyati, uning taʼlim jarayoniga kirib kelishi, qoʻllanilishi haqida turkum suhbatlar oʻtkazdik. Shundan soʻng musiqa tinglash, musiqaga xos harakatlar bajarish, musiqa savodi, qoʻshiq kuylash faoliyatlari uchun maxsus tanlangan texnologiyalarning qisqa variantlarini qoʻllagan holda oʻquvchilarning darsga faolligini, oʻzini erkin tutush, muloqotga kirishishlarining faol ishtirokchisiga (vazifa, topshiriqlarni bajarish) aylantirishga harakat qildik. Biz ilgʻor texnologiyalarni tadbiq etishda jonli suhbat, amaliy ijro, namoyish etish, oʻquvchilarga mustaqil topshiriqlar berish, ularning javoblari va darsga qatnashishlarini ragʻbatlantirib borish bilan birgalikda olib bordik. Oʻquvchilarga dars mavzulari boʻyicha qoʻshimcha manbaalarni oʻqish, oʻz ustida ishlash, sinfdan tashqari mashgʻulotlarga faol qatnashish tavsiya qilinadi.

Bu oʻrinda musiqani diqqat bilan tinglash, turli savollarga javob berish, ijro etib koʻrsatish, tahlil qilish kabi uslublardan oʻrinli foydalanildi.

Tadqiqot jarayonida oʻquvchilarni musiqa sanʼatiga qiziqishini kuchaytirish, darslarda faol ishtirokini taʼminlash va oʻz ustida ishlashlariga alohida ahamiyat berildi.

1. Qoʻllanilayotgan pedagogik texnologiyalarni qiziqarli, ixcham, bolalarni yosh va individual xususiyatlariga mosligiga eʼtibor berildi.
2. Darslarda oʻquvchilarni kichik guruhlariga boʻlib, musobaqa tarzida tshkil etishga intildik.
3. Koʻproq “oʻyin” shaklidagi texnologiyalarga oʻrin berildi.
4. Kuy va qoʻshiq namunalari tinglash, kuylashda uning milliy ijrochilik uslublariga amal qilish, qaysi mahalliy ijrochilik uslubiga

tegishliligi, mualliflari, mohir ijrochilari haqida bilimlar nazarda tutildi.

5. Repertuarining rang – barangligi, nazariy ma`lumotlarni, amaliy vazifalarni bajarish bilan bog`liq holda tushuntirish, ko`rsatib berish kabilar diqqat markazimizda bo`ldi.

6. O`quvchilarni maktabda o`tdigan turli madaniy ommaviy tadbirlarga konsertlarga jalb qilishga harakat qilindi.

Tajriba – sinov ishlari natijalarining matematik statistik tahlili.

Tadqiqot doirasida olib borilgan izlanishlar va amaliy tajribalar pedagojik texnologiyalar vositasida tashkil etilgan darslarda o`quvchilar ancha faol izlanuvchan va intuiuvchan bo`lib qolishlarini ko`rsatdi. Chunki doimiy ravishdagi savol – javob, munozara, so`rov, tahlillar, o`qituvchi – o`quvchining erkin muloqoti va birgalikda ishlashi o`z samarasini berishi tabiiy edi.

Tabiiyki, o`quvchilar mazkur faoliyatning dastlabki davrida o`z tushunchalarini ifoda etish, munosabat bildirish, o`z qarashlarini himoya qilishga biroz qiynaldilar. Bu kamchiliklar hali mustaqil fikrlash tajribasining kamligi, nazariy bilimlarni amaliy jarayonda qo`llay olmasligi, o`z munosabatlarini to`laqonli ayta olmasliklarining oqibatidir deyish mumkin.

Tajriba ishlari davomida texnologiyalashtirilgan dars mavzularini o`tishga puxta tayyorgarlik ko`rish, dars mashg`ulotlarining aniq maqsadi, vazifasi va mazmunini belgilash, o`quvchilarni unga oldindan tayyorlash, o`tkazilish tartib – qoidalari bilan tanishtirish muhim o`tin tutishiga ishonch hosil qildik.

Amaliy tajribalar davomida ta`lim jarayonini pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etishning negizini quyidagicha ta`riflash to`g`rib o`ladi degan qarorga keldik:

- ✿ ta`lim jarayonida o`quvchilarda o`quv mashg`ulotlariga barqaror qiziqishini hosil qilishlari uchun har taraflama puxta aniq va qiziqarli bo`lishiga erishish;
- ✿ mashg`ulot jarayonida bajariladigan ayrim harakatlar, topshiriqlarni bajarishni o`quvchilar mustaqil mashq qilishlari;
- ✿ texnologiya mazmuni, mohiyati, o`tkazilish tartibi haqida maslahatlar berib borish;

- ✿ har bir mashg`ulot yakunini jamoa bo`lib tahlil va muxokama qilish; .
- ✿ o`quvchilarni o`qituvchi va o`rtoqlari ishini kuzatishga o`rgatish va hozir kazolar.

Xullas, olib borilgan amaliy tajriba ishlari uchun maxsus tayyorlangan metodikani amaliyotda sinash natijasida o`quvchilar bilimi, musiqiy – nazariy tayyorgarligi, fikrlash, mushohada qilish, asarlarga tavsif berish, tahlil qilish, amaliy ijrochilik ko`nikma va malakalarida sezilarli darajada o`zgarish bo`lganligi aniqlandi. Mazkur o`zgarish quyidagi jadvalda o`z aksini topdi:

Ta'lim texnologiyalari qo'llanilgan musiqa darslari jarayonida o'quvchilarning musiqiy – nazariy bilim va malakalari, musiqiy madaniyatining shakllanganlik darajasi (tajriba oxirida).

№	Musiqiy – nazariy, amaliy ijrochilik, bo'yicha bilish, ko'nikma va malakalari mazmuni	O'quvchilarning soni			
		Tajriba guruhi n 60		Nazorat guruhi n260	
		Ijobiy	Salbiy	Ijobiy	Salbiy
1.	Musiqani idrok etish, (janr, lad, o'lchov, xarakter)	42	18	33	27
2.	Musiqaga tavsif bera olish, (ijro uslubi, g'oyaviy – badiiy mazmuni)	37	23	36	24
3.	Nazariy tahlil	40	20	28	32
4.	Ijro etish malakasi	33	27	34	26
5.	Vokal – xor malakasi (soz, ansambllik)	38	22	30	30
6.	Notani varaqdan o'qish malakasi	28	32	22	38
7.	Cholg'u sozlari haqida bilishi	46	14	41	19
8	Xalq va zamonaviy musiqaning o'ziga xos xususiyatlari uslublari haqida bilishi	43	17	34	26
.9.	Musiqiy xotirasi	46	14	38	22
10.	Musiqqa terminlarini izohlay olishi	36	24	30	30

Tajriba boshidagi va oxiridagi natijalar, ijobiy va salbiy ko'rsatkichlar o'rtasidagi o'zgarishlar umumlashtirilib tahlil qilindi va tajriba va nazorat guruhlaridagi o'quvchilarning musiqiy – nazariy, amaliy ijrochilik bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalaridagi o'sish darajalari aniqlandi. Ushbu yakuniy darajalar shartli ravishda 4 guruhga ajratildi. Tajriba va nazorat guruhlarida natijalarni hisoblashda qulay bo'lishi uchun 100 ballik reyting tizimidan 5 ballik reyting baholashni ma'qul deb topdik.

Tajriba – sinov ishlari jarayonida 120 ta o'quvchilardan olingan so'rovnoma, test, amaliy bilim, ko'nikma va malakalar natijalari tahlil etilib, matematik – statistika metodi orqali “juda yaxshi”, “yaxshi”, “o'rtacha”, “past” darajalariga ajratildi. Natijalar jadval ko'rinishida quyidagicha bo'ldi:

3 – JADVAL

Natijalar Tajriba guruhi								Natijalar Nazorat guruhi							
Darajalar								Darajalar							
Juda yaxshi		Yaxshi		O'rtacha		Past		Juda yaxshi		Yaxshi		O'rtacha		Past	
T.O	T.K	T.O	T.K	T.O	T.K	T.O	T.K	T.O	T.K	T.O	T.K	T.O	T.K	T.O	T.K
10.3%	25.2%	54.3%	61.3%	24.2%	13.2%	11.2%	0.3%	11.5%	13%	50%	52.5%	31.5%	25.5%	0.7%	0.9%

Izoh: (T.O – tajribadan oldin, T.K – tajribadan keyin)

So'rov natijalarining arifmetik qiymati va variatsiya ko'rsatkichlarini quyidagi jadvalda solishtiramiz:

4 – JADVAL

Ko'rsat kichlar	Natijalarning o'rta qiymati		“juda yaxshi” va “yaxshi” javoblarning salmog'i		Javoblarning o'rtachaga nisbatan tarqoqligi	
	T.O	T.K.	T.O.	T.K.	T.O.	T.K
	X* =3.1	X* =4.1	64.7%	86.6%	V _x =31%	V _x =14.6%

Bu yerda X^* o`rta arifmetik qiymat hamda V_x variatsiya ko`rsatkichidir.

4 – jadvaldan ko`rinadiki, tadqiqiy izlanish doirasida amalgam oshirilgan amaliy tajribalar o`quvchilarning nazariy bilim, amaliy ijrochilik ko`nikma va malakalarida o`tkazilgan tadqiqotlardan so`ng yuqori bo`lganligini ko`rsatdi. Jumladan, bu ko`rsatkichlar o`rtacha qiymati 3.1 dan 4.1 ga oshgan, “juda yaxshi” va “yaxshi” ko`rsatkichlar salmog`i 64.7% dan 86.6% ga oshgan va olingan natijalarning o`rtachaga nisbatan tarqoqligi 31% dan 14.6% ga kamaygan.

Ushbu ko`rsatkichlar bajarilgan ilmiy – tadqiqot ishimizning yuqori samaradorlik kasb etganligini ko`rsatadi. Olib borilgan kuzatishlar va o`tkazilgan sinov natijalari musiqa mashg`ulotlarini ilg`or pedagogic texnologiyalar asosida tashkil etish bo`yicha ilmiy asoslangan xulosalar chiqarish imkonini berdi.

Umumiy xulosalar

Har qanday jamiyatning istiqboli uning ta'lim – tarbiya maqomiga, yangicha ta'lim tizimi tarkibi va mohiyatiga, teran ma'rifiy madaniyatiga bog'liq. Zotan, ta'limma'rifati darajasigina jamiyatning, davlat va millatning kelajagini ta'minlaydigan, dunyo uzra nufuzini belgilaydigan yagona omil hisoblanadi. O'z maqomi va mundariyasi bilan u muqobili yo'q qadriyatdir.

O'zbekiston istiqbolining dastlabki kunlaridanoq ana shu haqiqatni o'z mustaqil taraqqiyot yo'lining istiqboli deb bildi. Jamiyat hayotining barcha jabhalaridagi amalga oshiriladigan tub o'zgarishlarning negizi milliy, ma'rifiy an'analarimizning zaminini yanada mustahkamlash, zamon talablari bilan uyg'unlashtirish orqali dunyoning zamonaviy ilg'or o'qitish usullari bilan boyitishga asosiy urg'u berildi. Bu esa o'z navbatida ta'lim tizimining moddiy texnika va axborot bazasini mustahkamlash, o'quv – tarbiya jarayonini yuqori sifatli o'quv adabiyotlari va ilg'or pedagogik texnologiyalar bilan ta'minlanishini taqozo etadi. Shu sababli ham pedagog kadrlarni tayyorlash jarayonida ularning kasb mahoratini ilg'or pedagogik texnologiyalar asosida shakllantirish bugungi kunning muhim talabi sifatida qo'yilmoqda.

Ta'limga texnologik yondashuv pedagogik jarayonga faol ta'sir etuvchi va uning samaradorligi, bir butunligi, muvaffaqiyatini belgilab beruvchi vositalardandir.

Ta'limga texnologik yondashuvning nazariy – metodologik tahlili shuni ko'rsatadiki, jamiyatning ijtimoiy buyurtmasi pedagogika fani taraqqiyoti darajasiga bo'lgan talablar bilan chambarchas bog'liq.

Hozirgi vaqtda ilg'or pedagogik texnologiyalar asosida o'qitish haqida turli – tuman fikr, qarash, yondashuvlar mavjud. Bu ham tasodifiy emas albatta. Zamonaviy, ilg'or pedagogik texnologiya asosida o'qitishni yo'lga qo'yish, ta'lim jarayonini o'quvchilar uchun tushunarli va qiziqarli sohalarini yaratish uchun tinimsiz izlanish o'qituvchining muhim vazifasi bo'lib qolmoqda.

Bizning tadqiqotimiz davomida olib borilgan nazariy, uslubiy manbaalarni o'rganish, musiqiy ta'limdagi mavjud holat, ularda pedagogik texnologiyalarni qo'llanishi, nihoyat tajriba – sinov ishlari natijalaridan shu narsa ma'lum bo'ldiki, o'quvchilarni darsda turli ilg'or pedagogik texnologiyalar vositasida faol ishtirokini ta'minlash, shu orqali ularning musiqiy – nazariy, amaliy ijrochilik ko'nikma, bilim, malakalarini shakllantirish ta'limning sifat va samaradorligiga nihoyatda katta ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Shu bois ham amalga oshirilgan tadqiqot natijalari quyidagi xulosalarga kelishimizga asos bo'ldi:

1. Ta'lim tizimining barcha bo'g'inlarida, xususan uning eng muhim shakllantiruvchisi bo'lgan umumiy o'rta ta'lim tizimidagi muhim vazifalardan biri o'quvchi – yoshlarni fanning barcha yo'nalishlarida chuqur va mustahkam bilim olish, ularni kelajakda ta'limning yuqori bosqichlarida o'qishni muvaffaqiyatli davom ettirib, munosib kadrlar bo'lib yetishishlariga zamin tayyorlashdan iborat.

2. Bu maqsadni muvaffaqiyatli amalga oshirishda ta'limni uzluksiz takomillashtirib borish, maktab, akademik litsey, kasb – hunar kolleji, oliy ta'lim o'rtasida o'zaro mustahkam aloqani yo'lga qo'yish, ta'lim sohasidagi yangiliklar, ilg'or tajribalarni ommalashtirish, metodik hamkorlikni izchil olib borish zarur.

3. Umumta'lim maktablarida o'qitiladigan barcha fanlar qatori musiqa darslarini ilg'or pedagogik texnologiyalar orqali tashkil etishning keng imkoniyatlari mavjud. Musiqa darslari mazmunini pedagogik texnologiyalar asosida yo'lga qo'yishga e'tiborni kuchaytirish, zarur pedagogik shart – sharoitlarni yaratish lozim.

4. O'rta ta'lim tizimida darslarni pedagogic texnologiyalar orqali tashkil etishning muvaffaqiyati ko'p jihatdan oliy o'quv yurtlarida bo'lajak o'qituvchilarni pedagogik texnologiya asosida tayyorlash, o'qituvchilarni qayta tayyorlashga bo'g'liqdir.

5. Hozirda umumta`lim maktablarida faoliyat ko`rsatayotgan musiqa o`qituvchilarini texnologik yondashuvga tayyorlash tizimini ishlab chiqish, amaliyotga joriy etish, zarur o`quv – metodik qo`llanmalar, dars ishlanmalari bilan ta`minlash zarur.

6. Ta`lim tizimini nazariy – metodik jihatdan uzluksiz takomillashtirib borish maqsadga muvofiqdir.

7. Umumta`lim maktablari musiqa darslarini ilg`or pedagogik texnologiyalar asosida, interfaol usullardan foydalangan holda tashkil etish bo`yicha ijtimoiy - pedagogik yo`nalishda ilmiy tadqiqotlarga e`tiborni kuchaytirish zarur.

Umumta`lim maktablari “musiqa madaniyati” darslarida ilg`or pedagogik texnologiyalardan foydalanib darslarni tashkil etish asosida o`quvchilarning musiqiy – nazariy bilimlari, amaliy ijrochilik ko`nikma va malakalarini shakllantirishga qaratilgan tadqiqot izlanishlar, amaliy ishlarning samarali natija berishi yuqorida ta`kidlab o`tilgan xulosaviy fikrlar bilan izohlanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI:

1. I. Karimov. Buyuk kelajak sari. Toshkent, O`zbekiston. 1999-yil.
2. I. Karimov. Biz kelajagimizni o`z qo`limiz bilan quramiz. Toshkent. O`zbekiston. 1999-yil.
3. I. Karimov. Barkamol avlod orzusi. – Toshkent. O`zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti. 2000-yil.
4. I. Karimov. Yuksak ma`naviyat yengilmas kuch. – Toshkent, Ma`naviyat, 2008 – yil.
5. I. Karimov. O`zbekiston mustaqillika erishish ostonasida. – Toshkent, 2011 – yil.
6. O`zbekiston Respublikasining “Ta`lim to`g`risida” gi qonuni va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”. – Toshkent, Ma`rifat, 1997 – yil.
7. O`zbekiston Davlat Ta`lim Standarti. 5141000 – musiqiy ta`lim yo`nalishi bo`yicha bakalavr tayyorgarlik darajasi va zaruriy bilimlar mazmuniga qo`yiladigan talablar. – Toshkent, Oliy va o`rta maxsus ta`lim vazirligi, 2008 –yil.
8. Umumiy o`rta ta`limning DTS va o`quv dasturi. Musiqa, 1999 – yil.
9. Uzviylashtirilgan Davlat Ta`lim Standarti va o`quv dasturi. Musiqa. – Toshkent, 2010 – yil.
10. Yo`ldoshev Sh, Usmonov S. Pedagogik texnologiya asoslari. – Toshkent, - Fan, 2001 - yil.
11. Ishmuhammedov R, Abduqodirov A. Ta`limda innovatsion texnologiyalar. – Toshkent, - Fan, 2008 – yil.
12. Tolipova Sh. Pedagogik texnologiyalar – do`stona muhit yaratish omili. – Toshkent, YUNIREF, RTM, XTB, 2005 – yil.
13. Davletshin M. G. Zamonaviy maktab o`qituvchisining psixologiyasi. – Toshkent, - O`zbekiston, 1999 – yil.
14. Sharipova G. Musiqa o`qitish metodikasi. TDPU, 2004 – yil.

15. Musiqa o`qitish metodikasi va maktab repertuari. Fanning o`quv – uslubiy majmuasi. – SamDU, 2011 – yil.
16. Mutaxassislik fanlarini o`qitish metodikasi. – O`quv – uslubiy majmua. SamDU, 2011 – yil.
17. Qo`shayev A. Estetik tarbiya asoslari. – Toshkent, O`qituvchi, 1988 – yil.
18. Hasanov A. Musiqa va tarbiya. – Toshkent, - O`qituvchi, 1995 b-yil.
19. Nurmatov H, Norxo`jayev N. Musiqa alifbosi. 1 – sinf uchun darslik. – Toshkent, G`. G`ulom nomidagi nashryot – matbaa ijodiy uyi. 2011 – yil.
20. Nurmatov H, Norxo`jayev N. Musiqa. 2 – sinf uchun darslik. G`. G`ulom nomidagi nashriyot – matbaa ijodiy uyi. 2010 – yil.
21. Nurmatov H, Norxo`jayev N. Musiqa. 3 – sinf uchun darslik. G`. G`ulom nomidagi nashriyot – matbaa ijodiy uyi. 2008 – yil.
22. Ibrohimov O. Musiqa. 4 – sinf uchun darslik. – Toshkent, G`. G`ulom nomidagi nashriyot – matbaa ijodiy uyi. 2009 – yil.
23. Mansurov A, Karimova D. Musiqa. 5 – sinf uchun darslik. – Toshkent, G`. G`ulom nomidagi nashriyot – matbaa ijodiy uyi. 2010 – yil.
24. Mamirov Q, Begmatov S. Musiqa. 6 – sinf uchun darslik. – Toshkent, G`. G`ulom nomidagi nashriyot – matbaa ijodiy uyi. 2009 – yil.
25. Ibrohimov O. Ibrohimov Sh. Musiqa. 7 – sinf uchun darslik. – Toshkent, G`. G`ulom nomidagi nashriyot – matbaa ijodiy uyi. 2008 – yil.
26. Soipova D. Musiqiy va musiqiy – nazariy bilimlarni o`zlashtirish jarayonini takomillashtirish. – Toshkent, 2005 – yil.
27. Кабалевкий. Как рассказывают детям о музыке. Москва, - Просвещение, 1987 – год.
28. Dmitriyeva L. G. Методика музыкального воспитания в школе. Москва, Просвещение, 1989-yil.

- 29.** Akrashina O.A. Методика музыкального воспитания в школе. Москва, Просвещение, 1983-йil.
- 30.** Qodirov R. Boshlang'ich maktabda ko'p ovozli kuylash. – Toshkent, “G'. G'ulom.” Nomidagi adabiyot va san'at nashiryoti, 1997-yil.
- 31.** Rajabova D. Fortepiano mashg'ulotlari. – Toshkent, O'qituvchi, 1994-yil.
- 32.** Qoraboyev U. O'zbek xalq o'yinlari. – Toshkent, “San'at” – 2001-yil.
- 33.** Abralova M, Soliyeva D. Musiqa. O'qituvchilar uchun metodik qo'llanma. Toshkent, G'. G'ulom nomidagi nashriyot – matbaa ijodiy uyi, 2008 – yil.

MUNDARIJA:

1	Kirish.	3
2	I BOB. Ta`lim samaradorligini oshirishda ilg`or pedagogik texnologiyalarning o`rni va ahamiyati.	8
3	1.1. Ta`lim jarayonida pedagogik texnologiyalarni joriy etishning ilmiy – nazariy asoslari.	8
4	1.2. Musiqa ta`limida pedagogik texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlari.	17
5	II BOB. Musiqa madaniyati darslarida ilg`or pedagogik texnologiyalarni qo`llash mazmuni.	29
6	2.1. Musiqa o`qituvchilarini innovatsion ta`lim faoliyatiga tayyorlash.	29
7	2.2. Musiqa darslarida ilg`or pedagogik texnologiyalarni tadbiq etish texnologiyasi.	38
8	III BOB. Ilg`or pedagogik texnologiyalar vositasida ta`lim samaradorligini ta`minlash yuzasidan amaliy tajribalar mohiyati.	61
9	3.1. Musiqiy ta`limda ilg`or pedagogik texnologiyalarni qo`llash tizimi va uning samaradorligi.	61
10	3.2. Tajriba – sinov ishlari natijalari tahlili.	70
11	Umumiy xulosalar.	75
12	Foydalanilgan adabiyotlar.	78
13	Ilovalar.	-